

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

SHERMATOVA HAVASOY A'ZAMOVNA

O'ZBEK SHE'RIYATIDA BOBUR OBRAZINING TADRIJIY TALQINI

5220100 – Filologiya

(o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik

darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: F.f.n. A.Hamraqulov

ANDIJON – 2015

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. Zahiriddin Muhammad Bobur - lirik qahramon.....	7
3 . Sirojiddin Sayyid she'riyatida Bobur madhi.....	21
4. Андижон адабий муҳитида Bobur obrazi.....	35
5. Xulosa.....	47
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	50

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlolning dastlabki kunlaridan “O‘zbekiston—kelajagi buyuk davlat” shiori kun tartibiga qo‘yildi. Chunki Amir Temur davrida bu yurt davlat sifatida jahonga mashxur edi. Buyuk davlat barpo etish uchun yurtimizda siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy sohalarda tub islohotlar o‘tkazila boshlandi. Bu islohotlar ichida ma‘naviy sohadagi islohotlar muhim ahamiyatga egadir. Boshlangan bu ulkan ishlarni ma‘naviy barkamol avlodgina oxiriga olib boradi. Ma‘naviyat borasidagi vazifalar I.A. Karimovning “Yuksak ma‘naviyat—yengilmas kuch” nomli kitobida batafsil ko‘rsatib berilgan.

Bugungi yoshlarga bu mustaqil, obod va ozod yurt qanday kurashlar, qanday fidoliklar tufayli yuzaga kelganini anglatmoq zarur. Bu sohadagi vazifalar, uning ahamiyati Yurtboshimizning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asarida asoslab berilgan.

Biz ajdodlarimizga munosib avlodlar bo‘lmog‘imiz, ular qoldirgan meroslarni asrab-avaylab, qolaversa kelajak avlodga ham yetkazmog‘imiz darkor. Bu moddiy va ma‘naviy meroslar ko‘ngillarni faxr-iftixor tuyg‘ulariga to‘ldiradi. Bugungi kunda e‘zozlanayotgan, meroslari tadqiq qilinib, nashr etilayotgan bir qator o‘tmish allomalarimizning nomlarini ko‘pchilik bilmasdi. Ularning nomlari umuman tilga olinmasdi, olinganda ham manfiy jihatlari bo‘rttirib ko‘rsatilib, faoliyatlariga sinfiy pozitsiyadan turib va daxriylik nuqtai nazaridan baho berilardi, ularning meroslarini o‘rganish ta‘qiqlanardi. Mirzo Bobur haqida roman yozib baloga qolgan Pirimqul Qodirov ne-ne ta‘qib-u tazyiqlarga uchragani barchaning yodida. O‘tmishga salbiy munosabat hayotimizning barcha jabhalarini chulg‘ab olgan edi, jumladan maktab darsliklari ham bu ta‘sirdan holi emasdi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi arafasida Mirzo Bobur faoliyatiga nisbatan mana shunday yondashuv haqida Prezident Islom Karimov quyidagi gaplarni aytgandi:

“Yaqindagina o‘zbek adabiyotining klassigi Boburni baholashda tor sinfiy yondashuv ro‘y berdi. Adib ijodining milliy va umuminsoniy ahamiyati kamsitildi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1986- yilda bo‘lgan uchinchi plenumida Bobur

shaxsi tahqirlanib, u “ma’rifatli” zolim deb tilga olindi. Xalqimiz Markaziy Komitet va jumhuriyatimiz hukumatining Navoiy, Ulug’bek, Bobur, Mashrab va xalqimizning boshqa buyuk farzandlari yubileylarini o’tkazish to’g’risidagi qarorlarni juda ruhlanib kutib olganligi bejiz emas”¹. Shu ma’noda Bobur ijodini, uning ma’naviy merosini bugungi kun, istiqlol davri nuqtai nazaridan tahlil qilish bugunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

Yosh avlodni ma’naviy jihatdan tarbiyalashda boshqa vositalar qatorida mumtoz adabiyotning ham o’z o’rni bor. Mumtoz adabiyot xalqimizning asrlar davomidagi donoligi, badiiy zavqini mujassam etgan. Bu adabiyotni o’rganish qadryatlarni o’rganish, o’zlikni anglash demakdir.

Mavzuning o’rganilganlik darajasi. Bobur va uning ijodi o’zbek adabiyotida keng ko’lamda o’rganilgan. Mamlakatimizda juda ko’plab Boburshunos olimlar yetishib chiqqan. Ular o’zlarining tadqiqotlari davomida Bobur hayoti va ijodini, uning asarlarini alohida tartibda monografik planda tadqiq qilganlar. Bir qancha nasriy asarlarimizda (“Yulduzli tunlar”, “Saodat sohili”, “Boburiynoma”) uning murakkab hayot yo’li haqida hikoya qilinadi. Bizning ushbu bitiruv malakaviy ishimizda oldimizga qo’ygan maqsadimiz esa turli davrlarda, xususan istiqlol yillaridagi lirik asarlarda Bobur obrazining tadrijiy talqinini tadqiq qilishdan iboratdir. Shu jihatdan qaralsa mavzuning dolzarbligi oydinlashadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Istiqlol yillarida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o’rganish yangi bosqichga ko’tarildi. E’tibor berilsa, mustaqilligimizning dastlabki bosqichlarida Boburga qaytish, u bilan bog’liq tarixiy haqiqatlarni anglash, yangi asrning boshlariga kelib esa keng ko’lamda chuqur ilmiy tadqiqotlar boshlandi. Bu esa Bobur obrazining talqinlarida tadrijiy o’zgarishlarni ko’rsatdi. Tadqiqotda ishning aynan shunday qo’yilishi ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishdan ko’zlangan maqsad ko’plab shoirlarimiz o’z she’rlarida Bobur obraziga qayta-qayta murojaat qilishdi.

¹ Karimov I. A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T: O'zbekiston 2011. 28-bet

Talqinlar yillar davomida o'zgardi. Bobur shaxsidagi fazilatlar ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq tarzda qaytadan badiiy talqin etildi. Oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz shohligi shoirligidan, shoirligi shohligidan ulug' bo'lgan Mirzo Boburning asl qiyofasini, buyuk qiyofasini ochib berishga intilishdir.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotimizning asosiy obyekti sifatida o'zbek she'riyatidagi Bobur shaxsi yoritilgan she'rlar, dostonlar olindi. Shuningdek, o'zni bilan ilmiy tadqiqotlar mujassam bo'lgan Boburshunos olimlarning monografiyalaridan ham foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. Bobur siymosini o'rganishimizda avvalo Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy mafkura, milliy g'oya va ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan asarlari, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, To'lan Nizom, Olimjon Xoldor singari shoirlarimizning she'rlari, ba'zi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari ushbu bitiruv malakaviy ishimizning tadqiq usuli vazifasini bajardi.

Shuningdek, ishda tarixiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy tahlil metodlaridan ham samarali foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishning ilmiy xulosa va umumlashmalari va tahlil tamoyillaridan Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining, kollej va akademik litseylardagi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishi talabalariga o'zbek adabiyoti hamda Xalq ta'limi vazirligining o'rta va ixtisoslashtirilgan maktab internatlarida ona tili va adabiyoti darslarini ochiq seminar ko'rinishida o'tmoqchi bo'lgan o'qituvchilar samarali foydalanishi mumkin. Shuningdek, Oliy o'quv yurtlarida Boburning hayoti va ijodiga bag'ishlangan kechalar va to'garak darslarida ham ushbu bitiruv malakaviy ishdan foydalanish ko'zlangan samarani beradi.

Tadqiqotning sinovdan o'tishi. Bitiruv malakaviy ishi Andijon davlat universitetining "O'zbek adabiyoti" kafedrasida 2015-yil 30-mart kuni ichki himoyadan o'kazilgan. Tadqiqot ilmiy rahbar xulosasi va kafedraning muhokamasida tugallangan ilmiy tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, taxminan jami 50 sahifani tashkil qiladi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR— LIRIK QAHRAMON.

Milliy o'zlikni anglash porloq kelajak qurishga poydevordir. Zero, Yurtboshimiz aytganlaridek, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. O'z tarixini unutish kishini ma'naviy manqurtga aylantiradi. “Kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik,”—degan savol har bir o'zbekning hayolidan bot-bot o'taverishi kerak deb o'ylayman. Kechagi kun o'tib ketdi, ammo ertamiz porloq bo'lishi uchun biz bugun nimadir qilishimiz kerak. Ayni shu jarayonda biz o'tmishimizni yodga olamiz. Axir o'zbek xalqi o'tmishi bilan, buyuk siymolari bilan, ular yaratgan shoh asarlar bilan har qancha faxrlansa arziydi. Har bir davr ertangi kunni yaratishda tarix saboqlariga tayanadi. O'zbek xalqi azaliy orzusi istiqlolga erishgunga qadar ne-ne qora kunlarni boshdan o'tkazmsadi. Shunday davrlar o'tdiki, kuch-qudrati, ilm-ma'rifati, aql-u zakovati bilan olam ahlini lol etgan daholarimizga johil, kallakesar, xudosiz deya tuhmatlar yog'dirildi. Bir so'z bilan aytganda tariximizga qora libos kiydirildi. Eng achinarli tomoni shundaki, “besavod” olomon mana shunday yolg'on siyosat izmiga yurdi. Shundan vaziyatda o'zlarini el-yurt oldida burchliman degan erksevar yozuvchi-shoirlarimiz yuqorida ta'kidlaganimiz, tarixga murojaat qildilar. Hazrat Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, shoh va shoir Bobur mirzolarining g'avg'olarga to'la, ammo ibratli bo'lgan hayot va ijod yo'llaridan hikoya qiluvchi asarlar yaratildi. Ammo bu asarlar hukmron mafkura tazyiqi ostida yaratilgani ushbu asarlarning ayrim o'rinlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Ko'plab asarlarimizda tarixiy haqiqat buzib ko'rsatilgan, ammo bu asarlarning nashrdan chiqishi uchun yolg'on tarix to'qilishi shart edi. Millatimiz istiqlolga erishgach jamiyatning turli sohalarida, shu jumladan, badiiy adabiyotimizda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Avvalo so'z erkinligi yozuvchi-shoirlarimizga tarixni ro'y-rost tasvirlash imkonini berdi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimda xalqimiz tarixida, mumtoz adabiyotimizda zalvorli o'rin tutgan Andijonimiz farzandi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburning hozirgi zamon shoirlari ijodida yaratilgan obrazlari xususida fikr yuritmoqchiman.

Har bir yangi davr bosib o'tilgan yo'l – moziyni anglash ehtiyojini paydo qiladi, chunki bugun va ertaning ildizlari hamisha kechaning bag'rida qoimdir. So'ngi asrlar mobaynidagi fan va texnika yutuqlari natijasida hayotning anchayin turg'un va o'ta

sekin maromi shiddatli tus oldi. Va inson o'zgardi: uning tushunchalari, dunyoqarashi, qadriyatlari yangilandi. Albatta, bu yangilanishlar o'z navbatida adabiyotga ta'sirlarini o'tkazdi. Inson degan hilqatning yangi- yangi qirralari asta namoyon bo'lish bilan birga ruhiy dunyosini ham o'rganib bordi. She'riyatimizda Hazrati insonning murakkab shuurini ifoda etuvchi beqiyos usul va figuralar ham ko'zga tashlana boshladi. Bugungi kunda o'zbek she'riyatining o'ziga xos qarashlari, yo'nalishlari bor. Bu yo'nalishlarda yozilayotgan har bir asar yoxud ikki misra she'r, o'zining tom ma'nodagi muxlisini topib bormoqda. Istiqlool davriga kelib badiiy estetik tafakkur jahon ahamiyatiga molik bosqichga ko'tarila boshladi, binobarin milliy adabiyotimiz o'zligini anglash yo'liga tushib oldi, boshqacha aytganda bugun yaratilayotgan barkamol asarlar aql o'rgatish, yo'l ko'rsatish muayyan bir dastur bo'lishini nazarda tutmaydi, buni da'vo ham qilmaydi. Zamonaviy asarlar ko'proq sezish, tuyg'u hosil qilishga yo'naltirilgan bo'lib asosan o'quvchida munosabat va kayfiyat uyg'otadi. O'zbek she'riyatining ma'naviy miqyosi, badiiy salohiyati o'zining taraqqiyotida davom etmoqda. Shu o'rinda hozirgi o'zbek adabiyotida lirika alohida o'zining o'rniga ega. U zamonamiz kishilarining qalbida kechayotgan his- tuyg'ularni o'zida aks ettirish barobarida jamiyatimizning har bir a'zosida mustaqillikka shukronalar keltirish, porloq kelajakka bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan zamonaviy o'zbek she'riyati yangi obrazlar bilan boyidi. Lirik obraz she'riyatning qalbi, uning dardi va davosidir. Bu dardni va shu dard davosini anglamasdan turib biron bir fikr bildirish yoki she'riyatning falsafiy mazmunini anglash bizningcha xato fikrdir. Badiiy adabiyotda obrazning tutgan o'rni muhim hisoblanadi. Ma'lumki, lirikada voqelik tasvirlanmaydi, uning uchun voqelik lirik subyekt ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir. Lirik qahramon lirikadagi subyekt ko'rinishlaridan biri bo'lib, muallifning qalb kechinmalarini, o'y-tuyg'ularini ifodalash shaklidir. Lirik qahramon ko'plab o'quvchilar nazdida shoirning o'zi. Ammo bu yanglish xulosadir. Bu masala adabiyotshunosligimizda hanuzgacha baxslidir. Lirik qahramon va shoir bitta inson emas, ammo lirik qahramon shoir shaxsi bilan bog'liqlikda idrok etiladi. To'g'ri, zamonaviy she'riyatda an'analarni butunlay inkor etib, yangicha she'riyat da'vosi bilan chiqayotganlar ham yo'q emas. Biroq an'analarni davom ettirib, o'zidan avvalgi

shoirlar ijodiga yuzlanayotgan, tarixiy shaxslar obrazi orqali bugunini mushohada qilayotgan ijodkorlar ham talaygina. Tarixiy shaxsni lirik qahramon etib tanlagan ijodkor tarixiy shaxs ruhiga kirib, uning tilidan gapirib, moziyni jonlantirish orqali bugunning dolzarb muammolarini tadqiq etadi, bu muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini o'tmishdan qidiradi. Tariximizning muhim nuqtalarida o'zining yuksak iste'dodi-yu salohiyati bilan xalqimiz ong-u shuurida o'chmas iz qoldirgan tarixiy qahramon bu jarayonda bugungi kun ijodkoriga ko'maklashadi. Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Muhammad Ali, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron kabi ko'plab shoirlarimiz ijodida tarixiy shaxslar haqida yaratilgan yorqin ijod namunalarini uchratishimiz mumkin. Har bir ijodkor qanday mavzuda yozmasin o'z dunyoqarashini, o'z uslubini ifodalashga intiladi. Shuning uchun ham biz yuqorida sanagan ijodkorlarning she'rlari bir-biriga o'xshamagan, betakror, qayta-qayta o'qisangiz ham estetik zavq bera oladigan asarlardir. Insoniyat qalbida hamisha ruhiy ozuqaga ehtiyoj seziladi. U o'z qalbini tiklash, tafakkurini kamolotga yetkazish uchun kuch-quvvat manbalarini izlaydi. Tarix, xotira ana shunday qudratli manba sarchashmasi hisoblanadi. Kishi faqat ma'lumot olish uchungina tarixni o'qimaydi. Bu unga o'tmish haqida tasavvurga ega bo'lish va xulosalar chiqarish uchun ham zarurdir. Istiqlol tufayli Vatan, xalq, ajdodlar, o'tmish, qadriyat va meros haqida baralla so'zlash imkoniyati tug'ildi. Adabiyot tarixga katta umr beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu tinch jamiyatda tarixga qiziqish uyg'otish, xalqni o'zligini anglashga urinish mas'uliyatini ham adabiyot birinchilardan bo'lib o'z zimmasiga oladi. She'riyatga tarixiy shaxslar kirib kelib, kitobxon ko'z o'ngida buyuk ajdodlarimizning qiyofasi gavdalandi. Shu o'rinda aytish kerakki, shoirlari ijodidagi tarixiy mavzuni o'rganish, tadqiq etish va baholash bugungi adabiyotsunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan sanaladi.

Tarixiy shaxsni lirik qahramon sifatida tasvirlayotgan shoirlar bu orqali o'quvchilarga ibrat ko'rsatish bilan birga, tarixiy xotira bilan barkamol kelajakka poydevor qurmoqdalar. Ijodkorlar ertangi kun haqidagi o'y-hayollarini, yoki falsafiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mushoxada etishda tarixga—tarixiy shaxsga yuzlanmoqdalar. O'zbek xalqining dovrug'ini olamga yoygan tarixiy qahramonlarimiz—nomlari qutlug' bobokalonlarimiz haqida yozuvchi-shoirlarimiz, hatto jahon adiblari-yu shoirlari ham ko'plab asarlar yaratishdi. Mana shunday ulug'

ajdodlarimizdan biri Andijon farzandi Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur va uning avlodlari o'zlaridan qoldirgan moddiy hamda ma'naviy obidalar bilan nafaqat O'zbekiston xalqini, balki Afg'oniston, Hindiston, qolaversa butun dunyo odamlarining e'tiborini o'zlariga tortmoqda. Mustamlaka yillarida Bobur shaxsi qoralangani barchamizga ma'lum. O'sha mashum yilarida hukmron mafkuraning bosh maqsadi xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, shu yo'l bilan uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Sho'ro siyosati Bobur shaxsiga salbiy munosabatda bo'ldi. To'g'ri, Bobur hayoti va ijodi darslik va qo'llanmalarga kiritildi, ana shularda Boburga haqiqiy va odil baho berilmadi, uning merosi to'liq va adolatli o'rganilmadi. Bunday munosabat XX asrning 70-yillari, ayniqsa, 80-yillarida yanada kuchaydi. Bobur shaxsiga nisbatan "bosqinchi", "feodal sinf vakili" degan nohaq qoralash avj oldi. 1983-yilda YUNESKO qaroriga ko'ra, butun dunyoda Bobur tavalludining besh yuz yilligi nishonlangani holda, O'zbekistonda bu sana munosib nishonlanmadi. Olim va adiblarning sa'y-harakatlari tufayli bugun tarixiy haqiqat tiklandi. Yurtimizning mustaqillik yillarida ko'plab vatandoshlarimiz qatori Bobur shaxsi ham oqlanib, uning ilmiy, ijodiy merosi o'rganilmoqda va ommalashtirilmoqda.

Adabiyot muntazam ravishda o'zgarib, yangilanib turadi. Bobur shaxsini, uning ijodini talqin qilish ham o'ziga xos yo'nalishlarda o'rganib kelinmoqda. Istiqlolimizning birinchi besh yilligida Bobur shaxsini oqlash, uning ijodiga bildirilgan noto'g'ri fikrlarni dalillar asosida to'g'rilashga jiddiy e'tibor berildi. Hozirda Boburning mo'g'ullar avlodidan emasligi haqidagi mavzular dolzarbligini yo'qotgan. Chunki bu ayni haqiqatdir va jahon hamjimiylari oldida o'z isbotini topdi. Bobur xassos shoir, teran adabiyotshunos, haqiqiy tarixchi, zukko tilshunos, nozik ta'b musiqashunos, mohir tarjimon, salohiyatli shoh va sarkardadir. Sanalgan fazilatlarining bittasi alohida olinganda ham Bobur jahon madaniyati tarixida muqim qolaveradi. Ular butunligicha olinganda ham Bobur madaniyatimizning serqirra vakili ekani namoyon bo'ladi. Bu muborak zot xalqimiz tasavvurida eng avvalo, shoirdir, u lirik shoir, ko'p tilli shoirdir. Bobur turkigo'y shoir. Navoiy tomonidan huquqlari tiklanib, bebaho til ekani ham ilmiy, ham amaliy jihatdan isbotlangan turkiy turkiy til jozibazisini o'z asarlari orqali namoyon eta oldi. Navoiyning forsiy va arabiy so'zlarga boy usluban murakkab she'riyatini muayyan tayyorgarligi bo'lmagan o'quvchining tushunib yetishi qiyindir.

Bobur o'z she'riyatini xalqona zaminga qo'ydi. Uni oddiy xalqqa yaqinlashtirdi, o'zining asarlari misolida adabiyotning xalqchilligi masalasini kun tartibiga qat'iy qilib qo'ydi.

Boburning tahlikali, suronli hayot yo'llaridan hikoya qiluvchi shoh asar nasrda yozildi. "Yulduzli tunlar" odil hakam— kitobxon va vaqt sinovidan o'tib o'z bahosini oldi. Shoirларimiz ham o'z she'rlarida qayta-qayta Bobur obraziga murojaat qilishmoqda. Bu orqali ko'proq Vatan sog'inchi, Vatan qadri haqida dilbar she'rlar yaratildi, yaratilmoqda.

Shoirларimiz Bobur obrazini yaratishda turlicha yo'llardan borishadi. Biri temuriyzoda shoirning avlodi ekanidan fahrlanib, iftixor bilan unga murojaat qilsa, yana biri Bobur ruhiga kirib, uning nomidan gapiradi, Bobur nigohi bilan olamga nazar tashlaydi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov "Bobur" nomli she'rida lirik qahramon bilan Bobur obrazini, munofiq kishilarning lirik qahramonga qilayotgan g'arazliklari va bir zamonlar Bobur mirzoga nisbatan qilingan adolatsizlik, g'arazliklarni tasvirlaydi. Shu asnoda shoir lirik qahramon va Bobur obrazini qiyoslaydi.

Men-ku oddiy odam,
Shundoq bo'lsa ham,
Shukur, bas, degancha g'animlarim bor.
Shart emas ularga ta'rif chinakam,
Biri jununsifat, birovi hushyor.
Biroviga yoqmas jindek jur'atim,
Biroviga yoqmas men yurgan yo'lak.
Nogoh biror joyda chiqsa suratim
Biri uxlay olmay qiynalsa kerak.¹

Ushbu misralarda lirik qahramonning o'y-hayollari, ozmi-ko'pmi hayot yo'llaridagi g'animlari, lirik qahramonning g'animlariga munosabati, g'animlarning unga nisbatan hasadda ekanliklari tasvirlangan. Ammo shoirning maqsadi bu emas. Keyingi

¹ A. Oripov Yillar armoni T: G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1984. 387-bet

bandlarni o'qishda ijodkorning she'r yozishiga turtki bo'lgan asosiy masala o¹ydinlashadi.

Biz shunday o'tamiz,
Ya'ni kun ko'rib...
Maydagina kuchsiz, maydagina zo'r.
Hayotning mana shu burjidan turib,
Men Sizni o'yladim hazrati Bobur.²

Demak, shoir Mirzo Bobur haqida nimadir demoqchi. Uni qiynayotgan muammolarning Bobur shaxsiyatiga mushtarak nuqtasi, aloqadorligi bor. O'z g'animlaridan so'z boshlagan ijodkor endi Bobur siymosiga murojaat qiladi. Uning umr yo'llarini taftish etib ko'radi.

Siz— zobit, dastini cho'zgan dunyoga,
Siz— shoir, mangu bir alanga yoqqan.
Nainki bandalar, Sizning siymoga
Ne-ne saltanatlar kek bilan boqqan.³

Ushbu baytlardan anglashiladiki, lirik qahramonning dushmanlari hayotdagi oddiy odamlar, bundan farqli o'laroq Bobur mirzoga nafaqat yon-atrofidagi odamlar, balki, ulkan saltanatlar kek bilan qaragan. Boburning sargardonlikda, yurt sog'inchida o'tgan yillariga o'shalar sabab. Shu o'rinda shoir o'z dardini Boburni qiynoqlarga solgan azob-uqubatlar oldida juda mayda dard, mayda tashvish ekanligini his qiladi. Keyingi baytda esa Boburning she'riyat maydonida tutgan o'rni haqida Abdulla Oripov bergan bahoni ko'rishimiz mumkin. Bu baho nafaqat buyuk shoirimizning bahosi, balki, she'riyatga oshno bo'lgan barcha kitobxonning bahosidir.

Bahodirlik ichra yor Sizga Xumoy,
Siz ulug' zotlarning izin bosgan er.
Nazmiy sajdagohda Sizga, hoynahoy,
Imomlikka o'tgay faqat Alisher.⁴

¹ A. Oripov Yillar armoni T: G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1984. 387-bet

² O'sha kitob 387-bet

³ O'sha kitob 387-bet

Bu o'rinda Abdulla Oripovning ham Navoiy nazmiga, ham Bobur nazmiga bergan yuksak bahosini ko'rishimiz mumkin. Bu ikki ijodkor o'zbek adabiyotining, xususan, o'zbek mumtoz she'riyatining darg'alari, buyuk namoyondalaridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Bobur umrining salmoqli qismini jang-u jadallarda, ulkan imperiya qurish ilinjida o'tkazdi. Badiiy ijodga esa hayotining ma'lum qisminigina bag'ishladi. Ammo shu qisqa vaqt ichida o'lmas asarlar, betakror g'azallar yaratdi. Toj-u taxt o'tkinchi, davronlar o'tkinchi, biroq dilbar she'riyat mangu yashaydi. "Bobur" she'rining keyingi bandidan ayni shu mazmunni anglashimiz mumkin.

Ha, yolg'iz she'r qoldi, boshqasi abas,
Yetti iqlim aro doston naqlingiz.
Ne baxt, parchin bo'lib toj degan qafas,
Bizga yetib keldi olmos aqlingiz.¹

She'rning so'nggi bandida esa shoir o'z fikrlarini xulosalaydi. Butun she'r davomida Bobur shaxsini ulug'lagan, unga chetdan turib baho bergan ijodkor endi bevosita bu buyuk siymoga murojaat qiladi.

Ayting, ne topdingiz , siz kezib dunyo,
Xanuz boqisharlar sho'rishga to'lib.
Shoirsiz, yaxshisi qolingiz, Mirzo,
Mushfiq yurtingizda bir shoir bo'lib.²

Bugungi o'zbek she'riyatida ko'plab shoirlar Bobur ijodiga to'xtalgan, Bobur obrazini yaratgan. Bobur g'azallariga muxammaslar bog'lagan ijodkorlar ham talaygina. Shoirlarimizning Bobur haqida yozishlaridan asosiy maqsad kelajak avlodga Vatan qadrini anglatish, Vatanni e'zozlash hissini singdirishdir. Mirzo Boburning yurt sog'inchida bo'zlab o'tgan umri, yor-birodarlar sog'inchida o'tgan iztirobli hayoti biz uchun yaqinlarimizni qadrlash, ona yurtimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash yo'lida saboq bo'lib xizmat qiladi.

O'z she'rlarida Bobur haqida ko'p va xo'p yozgan ijodkorlarimizdan biri sevimli shoirimiz Muhammad Yusufdir. Adabiyot mutaxasislari Muhammad Yusufning ayni Bobur yoshida, qirq yetti yoshda vafot etganida ham bir hikmat borgan o'xshaydi,

¹ O'sha kitob 387-bet

² O'sha kitob 387-bet

deyishadi. Yuqorida keltirilgan Abdulla Oripov she'rida Bobur lirik qahramon emas, shoir chetdan turib bu ulug' insonga baho beradi. Muhammad Yusuf "Bobur nidosi" nomli she'rida Bobur ruhiyatiga kirib, Bobur tilidan so'zlaydi.

Toqatim toldi oqibat,
Taxtni yov oldi oqibat,
O'z yurtim qoldi oqibat,
Afg'on ketdim daryo kechib.
Omad kelar-ketar ekan,
Jon do'sting ham sotar ekan,
Ortingdan tosh otar ekan,
Hayron ketdim daryo kechib.¹

Bu o'rinda o'quvchi ko'z oldida Samarqand taxtining Shayboniixon tomonidan egallanishi, Andijondagi yor-u do'stlarning xiyonati, yuz bergan hodisalardan hayron bo'lib bobomeros yurtidan o'kinch bilan Afg'on sari ketayotgan Mirzo Bobur jonlanadi.

Ikki ko'zim elimdadir,
Cho'g'dek so'zim tilimdadir,
Dilib yonib, dilimda bir,
Armon ketdim daryo kechib².

Boburni esga olgan har bir o'zbekning hayolidan birinchi galda o'sha armon o'tadi. Ona yurt armoni. Muhammad Yusuf "Alvido" nomli she'rida ham Boburning Andijondan ketar chog'larini tasvirlaydi.

Alvido, yov olgan ul,
Anjonga endi alvido.
Shoh otam qurgan qadim,
Qo'rg'onga endi alvido.
Biz ketarmiz ayrilib,
Boqolmay bir qayrilib,

¹ M. Yusuf Ulug'imsan Vatanim T: O'zbekiston 2012. 36-bet

² O'sha kitob 36-bet

Bizni eslar har ko'ngil,

Har jonga endi alvido.¹

Muhammad Yusuf boshqa mavzularda yozilgan she'rlarida ham bir necha bor Bobur obraziga murojaat qilgan. “Xalq bo'l, elim” she'rida “Boburing bexabar yotsa Xirotlarda, Borib men uyg'otay desang, xalq bo'l, elim” tarzida, yoki “Andijon” she'rida:

Qirq yil chorla, go'rdan chiqmaydi Bobur,

Chiqsa ham bag'ringga sig'maydi Bobur,

Hindu quchog'ida uxlaydi Bobur,

Nega yig'lamaysan, ahli Andijon.²

Bobur Andijondan ayrilib armon bilan o'tdi. Shoirning nazdida Andijon ham Boburdek o'g'londan ayrilgani uchun uni eslab, sog'inib, yig'lab yashashi kerak.

Iste'dodli shoir Humoyun Akbarovning “Intihosiz navolar” she'riy to'plamida ham Bobur va boburiylarga bag'ishlangan qator she'rlar uchraydi. “Hind daftari” deya nomlangan mahsus bobda ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Bobur obrazini tadqiq etishga ko'maklashuvchi she'rlar jamlangan.

O'z holiga qo'y uni, qilich,

Tanholikni so'raydi bu dam.

Mayli bo'g'ib tashlasin Sog'inch,

Nochorlikning qo'llari bilan.³

Hazrat Navoiy umrining uchdan ikki qismini badiiy ijodga, qolgan bir qismini davlat va hokimiyat ishlariga bag'ishlagan bo'lsa, Mirzo Bobur hayotining uchdan ikki qismini jang-u jadallarga bag'ishlagan. Janglardan bo'sh vaqtlarini (bunday vaqtlar Bobur hayotida kam bo'lgan) badiiy ijodga bag'ishlagan. Ammo mana shu qisqa fursatlarni zoe ketkazmay, o'lmas asarlar yarata olgan. Humoyun Akbarov “Bobur” nomli she'ridagi qilichga murojaati ham aslida Boburning iste'dodiga, uning badiiy ijod odami ekaniga, vafosiz hokimiyat ilinji, turfa g'alayonlar uni shoh asarlar yaratishday ezgu ishdan chalg'itayotganiga ishora. Boburning qo'llari qilichdan ko'ra ko'proq qalam tutganida u hozirgidan ham ko'proq va ho'broq asarlar yaratarmidi.

¹ O'sha kitob 38-bet

² M.Yusuf Saylanma T: Sharq 2010. 42-bet

³ H.Akbarov Intihosiz navolar T:2007. 179-bet

Ma'lumki she'r tanholikda yaraladi. O'z tuprog'idan anchagina olisda bo'lgan, buning ustiga vataniga qaytmoqqa chorasiz bo'lgan Bobur yurt sog'inchida dilbar asarlar yaratdi. She'rning keying bandida ham Mirzoning nochorligi, ilojsizligining boshqa sabablari keltiriladi.

Keting,
a'yon va mulozimlar,
Siz — fitna-yu fujur to'dasi.
Shoir har tong yo'lga otlar—
Ketolmaydi,
Yurtning to'dasi.¹

Shoir a'yon va mulozimlarni fitna-yu fujur to'dasi deb ataganda Boburning hayot yo'llari bilan tanish o'quvchi sira hayratlanmaydi. Chunki, Mirzo Bobur umri davomida yaqinlaridan, yor-u do'stlaridan, saroydagi ishongan kishilaridan ko'p bor pand yegani ko'pchilikka ma'lum. Ijodkorning qarashlari bo'yicha Bobur har tongda o'z vatani sari yo'lga otlanadi, ammo ketolmaydi. Sababi endi u o'zga bir yurtning to'rasi. Bu joylarda ham shohning ortidan pichoq urishga tayyorlar talaygina. She'rning so'ngi bandida Bobur ruhiyatidagi eng harakterli nuqtalar chiziladi.

Siz ham keting,
sabr va bardosh,
Oh tutsa ham Hind osmonini.
Qo'lda qalam, ko'zlarida yosh:
Bobur kezar Andijonini.²

Ushbu satrlardan anglashiladiki, Bobur Andijon hayoli bilan yashadi, qaytish nasib etmagan bo'lsada, u hamisha hayollarida Andijonni kezib yurdi.

Humoyon Akbarovning "Boburnoma" she'ri ham kitobxonni o'yga toldiradi, mushohada qilishga undaydi. She'r Bobur yaratgan benazir kitob haqida. Ammo uni o'qir ekansiz ko'z oldingizda beixtiyor Bobur siymosi, u bosib o'tgan yo'llar gavdalanadi.

Inson yashay bilmas bu qadar,

¹ H.Akbarov Intihosiz navolar T:2007.179-bet

² O'sha kitob 179-bet

Ne sinovlar yog'dirmish falak,

O, bu tarix yurakni o'rtar

Boburnoma— qadimiy ertak.¹

Hammamiz ertak tinglab katta bo'lganmiz. Ertak qahramonlari hayotda og'ir qiyinchiliklarga duch kelib, ularni mardonavor yengib o'tib, oxiri murodlariga yetadilar. Biroq “Boburnoma” shoirning nazarida shunday ertakki, falak yog'dirgan buncha sinovlar, ya'ni Bobur boshdan o'tkazgan qora kunlar yurakni o'rtaydigan darajada tasvirlangan, aniqrog'i tasvirlanmagan, ayni haqiqat bor bo'y-basti bilan qog'ozga tushirilgan. “Inson yashay bilmas bu qadar” satri ijodkorning Bobur shaxsiga, uning sabr-u bardoshiga tahsinidir.

Saf-saf bo'lib lashkar yurishi,

Tog'dan-tog'ga misli afsona.

Urush qilmoq taqdirning ishi,

Boburnoma, balki jangnoma.²

Ma'lumki, “Boburnoma”da 1494-yildan, ya'ni 12 yoshli Boburning Farg'ona taxtiga o'tirish voqeasidan boshlanib, salkam vafotigach bo'lgan voqealar tasvirlangan. Bu voqealar ichida bugungi O'zbekistonning ko'plab viloyatlari ta'rifi, Afg'oniston, Hindiston kabi o'lkalarning ta'rifi, bog'-rog'lari, hayvonot olami, turli sohalarga oid qarashlar bilan bir qatorda shoh Bobur umrining salmoqli qismini egallagan jang-u jadallar haqidagi qaydlar ham keng o'rin egallagan. Shayboniyxon va Bobur o'rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar, Afg'on-u Hind diyoridagi urushlar tasviri ham kitobxonni befarq qoldirmaydi. “Boburnoma”ning ijodkor tomonidan jangnoma deyilishi shu sababdandir.

Turfa olam, turli fe'l atvor,

Taqdirlari zayli zamona.

Do'stlar ichra qolarsan nochor,

Boburnoma, balki pandnoma.³

Olam va odamni anglash benihoya mushkul ish. Yon-atrofdagi odamlar haqida chiqargan xulosalarimiz hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi. Bobur umri davomida

¹ O'sha kitob 179-bet

² H.Akbarov Intihosiz navolar T:2007. 184-bet

³ O'sha kitob 184-bet

turfa fe'l odamlarga ro'baro' bo'ldi. Zamona zayli tufayli taqdirlari o'zgargan odamlar, (xususan, Boburning taqdiri ham zamona kishilarining nomardliklari sababli butkul o'zgarib ketgan) xiyonatkor kimsalar haqida Boburnoma alam bilan yozdi. Bu tarixiy faktlar bugunning odamlariga hayot yo'llarida saboq bo'lib, do'st-dushman haqidagi qarashlarimizni boyitadi.

Bu safardir, o'tib tog'-u cho'l,
Iqlimlari senga begona.
Hayratlarga limmo-lim bu yo'l
Boburnoma—sayohatnoma.¹

“Boburnoma” avtobiografik asarlar ichida eng mukammali, eng sevimlisi, badiiy jihatdan ham yuqori darajada yozilgan asardir. Bobur Samarqand taxtini boy bergandan so'ng, oz sonli tarafdorlari bilan ota yurti tashlab ketadi. Yuqorida sanab o'tilgan hodisalar qatori Boburning yo'lda ko'rgan qiyinchiliklari, tog'-u toshlardagi, sahro-yu cho'llardagi sargardonliklari ham “Boburnoma”da batafsil tasvirlangan. Hatto uning tarfdorlaridan birining bu qiyinchiliklarga chidolmay ortga qaytgani va daryodan o'tib olsam, bu yoqlarga qaytib kelsam yuzim qaro bo'lsin degani, Bobur bir ruboiysida bu voqeaga ishora qilganini o'quvchilar bilsalar kerak. Bundan ko'rinadiki, “Boburnoma” chin ma'nodagi sayohatnoma, azob-uqubatlarga to'la sayohatlar tasvirlangan sayohatnoma asardir. Bu sayohatlar bilan o'rtoqlashgan har bir kitobxon Boburning murakkab hayot yo'lidan saboq oladi.

Har ne ta'rif yarashgay unga,
Tirik tarix parchasi go'yo.
Sahfalardan talpinar senga
Hazrat Bobur kashf etgan dunyo.²

Xa, haqiqatdan ham “Boburnoma” Mirzo Bobur kashf etgan dunyodir. U o'zining yuksak badiiyati, xalqonaligi, turkonaligi bilan o'quvchilarni o'z domiga trtadi, sehirleydi. Shoirlarimizning Bobur ijodini o'rganishida, Bobur obraziga murojaat qilishida “Boburnoma” ning o'rni va xizmati beqiyos.

¹ O'sha kitob 184-bet

² O'sha kitob 184-bet

O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron ham ijodi davomida tarixiy shaxslar obraziga, tarixiy voqealarga ko'p bora murojaat qilgan. Shoirning "Bobur" nomli she'ri buyuk bobomizning vatanni tashlab chiqib ketayotgan pallani aks ettirgan. Ayni shu voqeaga Xurshid Davron o'z hissiy munosabatini bildirgan.

Otlar yelar shiddatdan terlab,
Yangrar xatar to'la taqalar.
Hurkib ko'kka sapchir patirlab,
Tun uyqusi—qora qarg'alar.¹

She'ring boshlanishiyoq o'quvchini daxshatli hodisotdan fikr yuritilishiga ishontiradi. Ijodkor ushbu musibatni tabiat tasviri orqali jonlantirishga intiladi. Yurtni tashlab ketayotgan "xatar to'la taqalar" kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Tabiat tasvirlari orqali Mirzo Bobur hayotining dog'uli kunlariga ishora qilgan shoir she'ring keying bandlarida bevosita Bobur siymosiga murojaat qiladi:

Zahiriddin, qayga borursan,
Bobong taxtin, yurtingni tashlab.

Qora taqdir seni qul kabi

Qayonlarga ketmoqda boshlab.²

Ijodkor avvalo Boburning boshiga tushgan musibatlarni taqdirdan ko'radi. Sohibqiron nabirasini qora taqdir qul kabi olislarga boshlab ketayotganidan yozg'iradi.

Zahiriddin, bu qanday savdo,
Qora hijrat sari yuz tutmoq?
Yuragingni etar-ku ado—

Tirik turib Vatandan ketmoq?³

Haqiqatda shoir aytganidek, tirik turib vatandan ketgan Boburning yuragi ado bo'ldi. Umri davomida yozgan ko'plab g'azallari, ruboiylari o'sha ado bo'lgan yurakdan chiqqan nolalardir.

¹ X. Davron Bolalikning ovozi T:Sharq 1983. 126-bet

² O'sha kitob 126-bet

³ O'sha kitob 126-bet

Bugungi o'zbek she'riyatida ham dunyodagi barcha xalqlar she'riyatida bo'lgani singari insonni qiziqtirgan, inson qalbini to'ldirantirgan abadiy va azaliy mavzularda asarlar yaratilmoqda. Lirik asarlarimizda xalqimizning o'tmish madaniyati va tarixini ulug'lash, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish, ma'naviy-axloqiy muammolar, insoniy dardlar, armonlar, ishq-muhabbat kabi mavzular keng o'rin olgan. Har qanday shoirning ijodiy kamolotini ko'rsatadigan bosh omil - she'rlarida teran hikmatlarning go'zal badiiyat bilan aks etishidir. Ijodning yuksalish pallasida fikr teranlashadi, ifoda sayqallanadi, o'ziga hoslik yaqqolroq namoyon bo'ladi. Tarixiy shaxslar haqida yozilayotgan asarlarimizda ana shu kamolot alomatlari bo'y ko'rsatayotgani alohida tahsinga loyiqdir. Xalqimiz xotirasida ham, jahon tarixida ham o'chmas iz qoldirgan ulug' siymolar orasida Zahiriddin Muhammad Boburning alohida o'rni bor. Bobur Mirzo dunyoning eng baland tog'lari bo'lgan Pomir, Olay, Ximolay va Hindukushlardan necha bor otlig'u piyoda oshib o'tgan. Markaziy Osiyoda, Afg'oniston va Hindistonda qanday ulkan daryolar uchragan bo'lsa, Bobur Mirzo ularning hammasidan quloqch otib suzib o'tgan, parvardigor unga paxlavonlarcha bir jismoniy qudratni va bahodirlarga xos buyuk jasoratni daho darajasidagi isde'dod bilan birga ato etgan. O'zidagi barcha insoniy va ijodiy fazilatlarni Bobur Mirzo oliyjanob maqsadlarga hizmat qildirgan.

Shuning hammasi tufayli uyg'onish davrining dibar siymosi bo'lgan Bobur Mirzo besh asrdan buyon tug'ilib o'sgan diyoriga olamshumul obro' keltirmoqda. Hindistonda barpo etgan qudratli davlati va yozib qoldirgan o'lmas asarlari bilan yangi-yangi avlodlar tomonidan iftihor bilan tilga olinmoqda.

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA BOBUR MADHI.

O'zbek mumtoz adabiyoti – uzoq va teran tarixga ega, uning bag'rida minglab yetuk ijodkorlar bor. Ularning har biri – bir hazina misol. Ammo serqirralikda, sermahsullikda, badiiy barkamollikda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi betakrordir. Ilmiy va badiiy ijod olamida shunday ijodkorlar bo'ladiki, ular, eng avvalo, o'z xalqining asl farzandi, millatning fahr va iftihori bo'lish bilan birga, bir mamlakat, bir millat doirasidan chiqib, umumbashariy ahamiyat kasb etadilar. Bobur ham ana shunday siymolar sirasiga kiradi.

Bobur - buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqix, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabodot olamining bilimdonidir. Shoh Bobur mumtoz adabiyot lirikasiga o'zining devonlari bilan ulkan hissa qo'shgan. Ularning ikki qo'lyozma nusxasi borligi ma'lum. Bulardan biri Parijda, ikkinchisi Hindistonda saqlanadi. Yana Boburning Tehron devoni ham borki, bu hali o'rganilgan emas. Bobur devonlari lirik turning har xil janrlarida yozilgan she'rlarni: g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit'a, fard va boshqalarni o'z ichiga oladi. Unda biz oddiy g'azallardan tashqari g'azali musajja', qit'a g'azal, g'azali husni matla', qo'shaloq vaznli va qo'shaloq qofiyali g'azal, ruboiy tarona, oddiy tuyuqdan tashqari qo'shaloq tajnisli tuyuq, tajnissiz tuyuq hamda tajnisli qit'a, tajnisli fard shakllarini ham ko'ramiz. G'azal, ruboiy va tuyuq Bobur lirikasining eng xarakterli janrlaridir. Bobur aruzning hafif, ruboiy, rajaz, sare', taval, mutaqorib, mujtass, muzore', munsareh va hazaj bahrlaridan hamda bu bahrlarning 25 turdagi ichki xillaridan foydalanadi.

Bugun komil insonni shakllantirishda klassik adabiyotimizdagi an'analarga boy hayotbaxsh didaktikaning o'rni va roli g'oyat kuchaydi, ahamiyati ortdi. Bularning hammasi badiiy so'zning qadrini oshirishga xizmat qilmoqda. Adabiyotimizda xalqona falsafiy-ruh -sodda ifodalarga singib ketgan donolik, hissiy kechinmalarga yo'g'rilgan hikmatli ma'nodorlik tilning ifoda imkoniyatlari naqadar kengligini tasdiqlayapti. Bularning hammasi badiiy tafakkur madaniyati yangi bosqichga kirganidan dalolat beradi.

Tarixdan o'zi haqli bo'lgan o'rinni topish har bir millatning millatligini ko'rsatganidek, o'z haqqini talab etish va uni ajratib ola bilish har bir odamning odamligini ko'rsatadigan belgidir. Chinakam ziyoli, asl ijodkor oydin butun is'tedodini

millatning haqini ajratib olishga yo'naltiradi. Shu holat uning ijodiga ijtimoiy salmoq beradi.

Har bir avlodning o'zi suygan, ma'naviy, falsafiy kuch - quvvat oluvchi, hamisha topinib, talpinib, tayanib yurguvchi ona tarixi bor. Qaysi bir avlod uning ostonasiga bosh urib borsa, peshonasida oftob charaqlaydi. Tolei yorug'likka chulg'anadi. Qalbiga, shuuriga, tafakkuriga nur yog'iladi. Bu olamni, odamni qaytadan yangicha idrok etishga yo'naltirilgan ma'naviyat nuri, dunyoqarashlarda yangi sahifalar ochguvchi tafakkur yorug'ligidir. Moziyga yondoshishda ijodkorda jo'shqinlik, aniqlik bo'lishi zarur. Ana shu xislatlar bir yerga jamlansa, bir ijodkor shaxsida mujassamlashsa, juda yaxshi. Adib, shoir o'z xalqining tarixchisi emas, aksincha, u xalqining kuychisi. U tarixiy faktlarga, voqealarga romantik bir qanot, kayfiyat bag'ishlaydi. Shu tariqa odamlarning nazarini shu yo'nalishga qaratishi mumkin. Shoir tarix so'qmoqlaridan biron-bir siymoni oladi-da, turfa fazilatlar orasidan bir -ikkisini nurlantirib yuboradi, bulutlardan balandga ko'tarib ko'rsatadi.

Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi yana bir fazilat - ularda ulug' salaflarga bo'lgan yorqin ehtirom yorqin ifodalanishidir. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Maxtumdul, Bobur, Mashrab, Furqat kabi ijodkorlarga bag'ishlangan she'rlar, ular g'azallariga bog'langan muxammaslar ham buni tasdiqlaydi.

Aruzda yozish oson emas. Buning uchun so'zni nozik his etish, uni mahorat bilan saralay olish, muayyan mezonga sola bilish zarur. Hatto bular ham kifoya qilmaydi. Buning uchun mumtoz adabiyot mutolaasidan lazzat olmoq, ya'ni ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya sirlarini egallamoq talab etiladi. Sirojiddin Sayyid juda ko'p zamonlardan shu kabi fazilatlar sohibi ekani, bilganlarini amaliyotda mahorat bilan qo'llay olishi bilan alohida ajralib turadi. Bugungi shoirlardan ko'pchiligi bunday salohiyatga ega emas. Zahiriddin Muhammad Boburning hazaji musammani solim vaznida yozilgan quyidagi mashhur g'azaliga bog'langan taxmis shoirning yuksak mahoratiga yana bir dalildir.

Bulut ermas, ko'k uzra tarqagan ko'ngil gumonidur,
Gumon qilmak bu damda begumon dilning ziyonidur,
Ko'kargan xor ila xaslar tiriklikning nishonidur,
Bahor ayyomidur dag'i yigitlikning avonidur,

Ketur soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.¹

Taxmis vazn jihatidan ham, mazmun e'tibori jihatidan ham Bobur g'azaliga mutanosibdir. Shoir she'rlariga mahliyolikni bir so'z bilan aytganda ta'riflash qiyin. Sirojiddin Sayyid she'rlarida hayotga sezgirlik, hayotiy hodisalarga qiziquvchanlik, odamlar taqdiriga mas'ullik hissi hukmron. Shoir jo'shqin hayoting dolzarb muammolari, qaynoq nafasi og'ushida yashab kelmoqda. Shoir ijodiy individualligining o'ziga xosligi shundaki, hayotimizdagi shunday hodisalarni, odamlararo munosabat ko'rinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi. Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-estetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning ana shu mitti bo'lagi millat va Vatan taqdiriga daxldor mohiyati bilan namoyon bo'ladi.

Temuriyzoda sultonlardan biri, ulug' shoir va davlat arbobi, yirik sarkarda va benazir tarixnavis Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi davr-u zamonlar o'tgani sayin necha avlod ijodkorlarini qiziqtirib kelmoqda va bundan keyin ham shunday bo'lmog'i muqarrar. "Shoirliği shohligidan, shohligi shoirligidan ulug'" hazrati Bobur qisqa bo'lsada, nechog'li ziddiyat va qarama-qarshiliklar, matonat va jasoratlarga boy, sertahlika va sermazmun hayot yo'lini bosib o'tgani o'quvchilarga yaxshi ma'lum. Vaqt o'tgani sari ulug' ajdodimizdan qolgan ulkan ijodiy merosning qadr-qimmati yanada zalvor va salmoq kasb etmoqda. Aslida Temuriyzoda sulton Zahiriddin Muhammad Bobur deyilishining o'zidayoq hamma gap aytib bo'linganday. Shu maqom va nom tilga olinishi bilanoq boshqa so'z va izohga o'rin yo'qday. Bir o'zbek shoiri sifatida Bobur haqida yozishni burch deb bilgan ijodkorlardan biri O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyiddir. U Bobur haqida ko'plab she'rlar va "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostonini yaratdi. Bu haqda shoirning o'zi shunday deydi: "Boburnoma"ni o'qib, Boburni o'qib, amin bo'lganimiz: yo'q, yuz oh emas—yuz ming-yuz ming oh-u zor, yuz ming-yuz ming sog'inch-u firoqdan tuzilgan ekan bu umr, yuz ming emas, yuz ming uzra yana yuz ming bahor kelsa ham mangu munglig' bu ko'ngilning ochilmog'iga deyarli imkon yo'q ekan.

Ustoz adiblar maktabi va tajribasidan o'rgangan holda, burch va havas taqazosi yuzasidan men ham bir qalamkash sifatida Bobur bobo ijodiga murojaat qilmoqqa jur'at etdim. Va bu nihoyatda qisqa, ammo tuganmas hayotning, zim-ziyo olamni yoritgan

¹ S Said Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur T: Sharq 2008. 154-bet

chaqinday tez so'ngan, lekin, mana, besh yuz yillardan buyon to'xtamay davom etib kelayotgan mardlik va matonat, g'urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to'la umrning yuz lahza, yuz holatini qo'limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim. Goh Bobur hazratlari tilidan, goh o'zimdani, gohi she'r, gohi g'azal tarzida, goh ruboiy, goh muhammas shaklida ko'nglimdagilarni, niyat va maqsadimni insho etishga urinib ko'rdim. Shu jihatdan tagsarlavhada doston deb yozilgan bo'lsada, bu bitiklarni doston yo'lidagi bir jahd yo urinish deyilsa to'g'riroq bo'lar. Bino yohud imoratda bo'lgani yanglig', buning poydevoriga "Boburnoma"dan, Bobur she'riyatidagi eng nozik nuqtalardan—xotiralar, o'y va kechinmalar, misralar, bayt va ruboiylar asos qilib olindi. Binoning tarxi—loyihasi nechog'li pishiq-puhta chiqqani, g'ishtlari bilan sinchlari qanchalar to'g'ri qo'yilgani, shuvog'i-yu bo'yoqlarigacha baho berish zukko o'quvchiga havola. Faqat bir tahlika: Bobur Mirzoning qattiq, sinchkov nazari ul zotning "Boburnoma"da Sulton Mahmud mirzo haqida "Tab'i nazmi bor edi, devon tarkib qilib edi. Vale she'ri bisyor past va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmag'on yaxshiroqdir" degan qat'iy va keskir so'zlari hozir ham manglayim uzra qilichdek yarqirab turgandek tuyuladi".

Dunyoga kelmishdir hazrati Bobur,
Daholar ham qarz-u, ham farz yaralgay.
Sherlarning zuryodi faqat sher bo'lur,
Yo'lbarsning avlodi yo'lbars yaralgay.¹

Yuqorida Humoyun Akbarovning "Boburnoma" she'riga to'xtalgandik. Sirojiddin Sayyid ham Bobur haqidagi dostoninig avvvalida "Boburnoma" she'rini keltiradi. She'rni o'qir ekanmiz ko'z o'ngimizda Bobur siymosi, uning suronli hayoti gavdalanadi.

"Boburmoma"
"Boburnoma"
Shoh shoirdan avlادلarga
Mangu o'lmas
Qadrnoma.

¹ O'sha kitob 78-bet

Haqiqatan, bu asar o'zbek adabiyotining durdona asari. Uni o'qish, o'rganish orqali ma'naviyatni, adabiyotni, tarixni, geografiya, biologiya va boshqa bir qator sohalarning bilimdoniga aylanamiz. Bobur o'zining tahlikali umr yo'llarini tasvirlash barobarida bir qancha fanlarga doir bilimlarini keltirib o'tgan. Shu jihatdan ham bu asar asrlardan asrlarga sevimli, qadrli bo'lib o'tib kelmoqda. Hali yana necha zamon o'quvchilari ushbu asardan hayot saboqlarini, ilm-fanga oid bilim va ko'nikmalarni olishlari shubxasiz.

Bunda ko'ngil lolasidir,
Bunda umr nolasidir.
Dard-u g'am maqolasidir,
Har bir noma
Taqdirnoma.¹

“Boburnoma” Boburning shoir sifatida yuksak badiiy didi, salohiyatidan, shoh sifatida esa sog'inch-u firoqda o'tgan umridan hikoya qiladi. Birgina Boburning emas, ko'plab taqdirnlarning, do'st-u dushmanlarning hayoti-yu kechinmalaridan hikoya qiladi.

Necha bir hukmronlardan,
Amirlardan, xoqonlardan.
Davlatlar-u davronlardan,
Na nom qoldi,
Na bir noma.
Bobur chekkan iztiroblar,
Ranj-u zahmat ham azoblar,
Buyuk hijronidan boblar,
“Boburnoma”—
Jabrnoma.²

Bu misralar zamirida kitobxonni ham qayg'uga soluvchi, ham faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otuvchi teran mazmun yashiringan. Dastlabki misralar bugunning kishilarini, o'zbek kishilarini g'ururlantiradi. Tarix sahnasidan necha-necha

¹ S. Said Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur T: Sharq 2008. 205-bet

² O'sha kitob 205-bet

hukmdorlar, davlatlar, yolg'on kitoblar uchib ketayotgan bir mahalda o'zbek elining qanchadan-qancha donishmand siymolariga, daholariga, sultonlari-yu qahramonlariga jahon ahli havas bilan qaramoqda. Ammo bunday qismat egalarining bu darajaga erishmoqlari oson kechmaganining, hayot yo'llari azob-uqubatlarga to'la bo'lganing yorqin dalili "Boburnoma"dir.

"Boburnoma" haqidagi ushbu to'rtlik esa asarning bor bo'y-bastini ko'rsatib, unga berilgan eng to'g'ri bahoday tuyuladi.

Shoh shoirning ohnomasi—"Boburnoma",
Harbu zarb, jangohnomasi—"Boburnoma",
Firdavsiyning "Shohnoma"si border agar,
Turkiylarning shohnomasi — "Boburnoma".¹

Sirojiddin Sayyid Bobur haqida doston yaratar ekan asosiy manba sifatida "Boburnoma"ga tayanadi. "Boburnoma"da Bobur tomonidan yozib qoldirilgan tarixiy faktlarni badiiy to'yintirgan holda go'zal she'rlar ijod qiladi. Tarixiy faktlarni yuqorida keltirib, quyida uning zamonaviy talqinini keltirib o'tadi. Misol uchun:

"Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chohoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining boshida tarix sekkiz yuz to'qson to'qqizda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldim".

Mushtariy yarqirar avji fazoda,
Movoraunnahr yana nizoda.
Mirrix va yo Zuhal to'zg'itdimi chang—
Yerda boshlanadi to'polon yo jang.
Hali hayollari tiniq ham sodda,
O'n ikki yoshli bir Temuriyzoda.
Hali otasi ham jordan uchmagan,
Ko'ngil polaponin hijron quchmagan,
Hayoli ko'kdagi kaparlardadir,
Bilmaski, bor umri xatarlardadir.
Bilmas, ne bitilgan hukmi qazoda,
O'n ikki yoshli bir Temuriyzoda.

¹ O'sha kitob 296-bet

Ushbu misralardan ijodkor Bobur hayotiga hissiy munosabatini ko'rishimiz mumkin. O'n ikki yoshli sodda, beg'ubor bolakay taqdirning beshavqat sinovlari, saltanat ilinjida yurganlarning qurboni bo'ldi. Bu holat ijodkor shaxsga boshqalarga ta'sir qilgandan ko'ra boshqacharoq, kuchliroq ta'sir qilishi shubxasiz. Sirojiddin Sayyid ham o'n ikki yoshli boladan qurol tutib jangga kirishini emas, boshqa buyuk orzularning izidan ketishini istaydi. Yosh jonini bollikning shirin qayg'ular bilan o'tkazmog'ini xohlaydi.

Qirda chopib yurgan qulunlari bor,
Dasht-u kengliklarni aylar ixtiyor,
Hali maysadayin o'ylovginasi,
Endi xat chiqarmish mo'ylovginasi.
Qo'ldagi o'q-yoyi o'ynar havoda,
O'n ikki yoshli bir Temuriyzoda.¹

Sirojiddin Sayyid ijodida Bobur obrazi talqini alohida sahifalarni tashkil qiladi. Uning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" nomli kitobida Bobur haqidagi she'rlari jamlangan.

Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, shunday daho zotni qadrlamagan beqadr odamlardan nafratlanadi:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,
Muttahamlar dunyosida shoh Bobur.
Kecha uzun, manzil olis, yo'l uzoq,
Sizga faqat yolg'iz oy hamroh, Bobur.
Nonko'r beklar, beoqibat mirzolar,
Kimlar Sizga qazmadilar choh, Bobur!²

She'rni ko'zdan kechirganimizda, unda shoirning kuyunchak qalbini ko'ramiz. Shunday buyuk zotni qadrlamagan kimsalarni ayovsiz fosh etadi, ularga nafratini oshkor izhor qiladi. Bobur yashagan muhitni "muttahamlar dunyosi", atrofidagi beklarni "nonko'r, beoqibat" deya ta'riflaydi. Tarix bizga ato etgan buyuk ne'matni ham asray olmaganimizda shoirning qalbi ahduhlarga to'lib ketadi.

¹ O'sha kitob 122-bet

² O'sha kitob 122-bet

Qismat qattiq, alam bisyor, ey g'ofil,
Bu dunyoda bormi bir dilxox, Bobur.
Shoirligi shohligidan ulug'roq,
Shohligi ham she'riday ogoh Bobur.¹

Ushbu misralarda ham ulug' shoirning achchiq qismatiga ishora bor. Ammo Bobur shunday taqdir egasiki, ayni shu taqdir sabab u buyuk shoh va mislsiz darajada e'tirofga loyiq shoirdir. Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, uning hayotida ro'y bergan har bir jiddiy holatlarni e'tibordan qochirmaslikka harakat qiladi. Jang-jadallari, badiiy ijodi, intim tuyg'ularini tasvirlashda o'z hissiy munosabatlarini yozayotgan she'rlarining ruhiga singdiradi.

Turklar xatti nasibing bo'lmasa, Bobur, ne tong,
Boburiy xatti emasdur, xatti sig'noqiydur.

"Ushbu mahallarda Boburiy xatni ixtiro qildim". Bobur tomonidan bitilgan ushbu baytlardan ta'sirlangan Sirojiddin Sayyid "Xatti Boburiy" she'rida bu haqda to'xtalib o'tadi.

Xat emasdir asli xatti Boburiy,
Xat emas—armon-u axdi Boburiy.
Qalbi davot bo'lgan-u qoni siyoh,
Goh siyohday qora baxti Boburiy.²

Xatti Boburiyni ixtiro qilinishi Mirzo Boburning yuksak aqliy salohiyatidan nishona, qolaversa, uning nafaqat shoh va shoir, balki tilshunoslik ilmining ham bilimdoni ekanidan dalolatdir.

Menga aytsang, agar, ey yor,
Qovun birla uzumdan ayt.
G'amu hijron bilan o'tgan,
Kishi, ya'ni o'zimdan ayt.³

"Qovun birla uzum hajri" rukni ostida berilgan ushbu she'rda ham Boburning dilbar ko'ngli yarq etib ko'zga tashlanadi. Bobur haqidagi romanning vatandan qovun keltirilgandagi shoh Boburning holati aks ettirilgan voqea kitobxonni ham yig'latadi.

¹ S. Said Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur T: Sharq 2008. 172-bet

² O'sha kitob 118-bet

³ O'sha kitob 139-bet

Qatag'on yillarida ham millatning asl farzandlari tazyiqu ta'qibga uchradilar. Ularni sotqin shoirlar sotdilar va shu yo'l bilan o'zlarining jirkanch basharalarini ochdilar, iflos jonlarini asradilar, lekin avlodlar oldida sotqin degan nomga ega bo'ldilar. Haqiqat egiladi, lekin sinmaydi. Yurtning asl farzandlari yana yurtga qaytdi, lekin nomard va sotqinlar xalq qalbida salbiy xotira sifatida yashaydilar.

Bobur xalqimizga, butun dunyoda qo'rquv bilmas sarkarda, tadbirkor podshoh, mohir davlat arbobi, ayni paytda iste'dodli shoir, adib, donishmand, tarixchi, zukko olim va tarjimondir.

Bobur tarixda umri kurashlar, urushu g'alayonlar, notinchliklar bilan kechgan shaxs sifatida ham taniqli. U temuriylar saltanatini saqlab qolish uchun harakat qildi. Umri chet ellarda kechdi. Hayoti Afg'oniston, Hindiston kabi davlatlar bilan bog'liq bo'ldi. Bobur yirik madaniyat arbobi sifatida ma'lum. U yoshligidan ilm bilan shug'ullangani, fors, arab tillarini o'rganishi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug'ullangani bois ham ma'rifatni anglaydigan, madaniyatli kishi bo'lib etishdi. U fanning turli sohalariga doir ko'plab asarlar yozdi. Boburning lirik devonlari, «Boburnoma», «Mufassal», «Xatti Boburiy», «Harb ishi», «Musiqiy ilmi» islom dini asoslarining bayoni bo'lgan «Mubayyin», «Volidiya» tarjimasini va boshqa asarlari uning shuhratini yanada oshirdi.

Insonga boylik baxt bera olganida, hech shubhasiz, Bobur baxtli bo'lar edi. Darhaqiqat, Bobur umri mobaynida shunchalik ko'p boyliklarni qo'lga kiritdi-yu, ammo o'zini baxtli his qilmadi. Sabab shundaki, u baxt tushunchasini oliy darajada idrok etadi. Ochko'z odamlar nazdidagi boylik tushunchasini g'arib, bir pulga qimmat narsaga aylantirdi. O'zi hukmronlik qilgan mamlakatlarning boyliklariga sira ko'z olmaytirmadi. Aksincha, qaysi yurtga qadami tegsa, uni obod va ma'mur qilishga harakat qildi. Bobur tasavvuridagi baxt oliy maqomda turadi. Odamlarga yaxshilik qilishni, bunyodkorlikni, yaratuvchanlikni, ezgulikni baxt deb bildi.

Boburning umri Vatan hajrida o'rtangan umrdir. Vatan tuprog'ida o'sgan «Mir Temuriy» qovunlarning hidlari, asal kabi husayni uzumlar, yurtining zahmatkash odamlarining sog'inchlaridir. Sirojiddin Sayyidning "Kobulda bahor" nomli she'rida Boburning iztiroblariga sheriklik hissi bo'rtib ko'rinadi:

Kobulda bahoru g'amim ortadi,

Hasrat umrim aro cherik tortadi.
Musofir savdolar meni o'rtadi,
Bu gulshan ichra men bir tirik mozor,
Kobulda bahordir, Kobulda bahor.¹

Bobur keng dunyoqarashi, mukammal aql-zakovati, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda uch yuz o'ttiz ikki yil hukmdorlik qildi. Bobur avlodidan olti shaxs Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeblar bu yerda uzoq davr podshohlik qildilar. Shu o'rinda Boburning hayot yo'llaridan bir qisqacha yozib o'tmoqchiman.

1494 yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning akasi Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo va Toshkent hokimi Mahmudxon qo'shin tortadi. Falokat ro'y berib, 1494 yil 7 iyunda Umarshayx vafot etadi. 11 yoshli ba'zan 12 yosh ko'rsatiladi, Bobur Farg'ona viloyatining hokimi bo'ladi. Goh g'alaba, goh mag'lubiyatga uchrab turgan Bobur Farg'ona va Samarqand mulkini qo'l ostiga birlashtirib tura olmadi. Katta kuchga ega bo'lgan Shayboniyxon Saripul va Axsida Boburga zarba berib, u yerlarni ishg'ol qiladi. Bobur quvg'in va sargardon bo'lib, chet ellarda faoliyat ko'rsatadi. Shayboniyxon tazyiqi ostida 1504 yili Bobur ozgina askar va a'yonlari bilan Qobulga borib o'rnashadi. Bobur o'z yurtidan, toju taxtdan voz kechib ketolmaydi. Bir necha marta Samarqandni qayta yegallashga harakat qiladi. 1512 yilda shoh Ismoil dan Yordam olib, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandni uchinchi marta egallab oladi. Ubaydulla Sulton va Muhammad Temur Sulton 1513 yilning boshlarida katta qo'shin bilan Boburga qarshi yurish boshlaydilar. Bobur engiladi. Ismoil madad uchun Najmi soniy boshliq qo'shin yuboradi. U ham yengiladi. Boburning o'z saltanatini egallash orzulari barbod bo'ladi. U Afg'onistonda o'z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Bobur Hindistonga yurish rejalarini tuzadi. Birinchi navbatda Panjob viloyatini ishg'ol qilishni mo'ljallaydi. U Hindistonga yurish faoliyatini 1519 yildan amalga oshira boshlaydi, 1526 yilgacha besh marta harbiy yurish qiladi. 1526 yil noyabrdan harakati Sind, Panjob viloyatlari orqali Dehliga qaratilgan edi. 1526 yil aprelda Dehli sultoni Ibrohim Lo'diy bilan jang qilib, uni yengadi. 27 aprelda Dehlida Bobur nomiga xutba o'qiladi. So'ng Chitora hokimi Rano Sango bilan jang bo'ladi. 1527 yil 16 martda Bobur g'alaba

¹ O'sha kitob 302-bet

qozonadi. Bobur Hindistonda katta ishlarni amalga oshiradi. Uning avlodlari Bobur ishlarini davom ettiradilar.

O'zbek adabiyotida o'ziga xos boburshunoslik yuzaga keladi. Uning shaxsi va ijodi adabiyotshunos, tarixchi, tilshunos, jo'g'rofiya va boshqa soha kishilarining e'tiborini tortib keldi. J.Neru Bobur haqida o'zining «Hindistonning kashf etilishi» kitobida shunday yozadi: «Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi».

Sho'rolar davrida Bobur ijodiga bir yoqlama yondashildi. Uni qoralashga, faoliyatini o'rganmaslikka harakat qilindi. Boburning bizgacha yetib kelgan lirik she'rlari 1917 yili Petrogradda sharqshunos olim A.Samoylovich tomonidan chop etiladi. Keyinroq ular 1931 yilda Istanbul shahrida «Milliy tatabbu'lar majmuasi»da ham nashr etiladi. 1940 yili Bobur hayoti va ijodi 9-sinfda o'rganilishi Davlat dasturida belgilandi. «Adabiyot darsligi»da Navoiy, Turdi, Muqimiy qatori Bobur hayoti va ijodi ham kiritildi. 1947 yili dastur asosida VII sinflarda Bobur merosi o'rganilishi qayd etildi. Bobur asarlari «Bolalar adabiyoti»ga kiritiladi. Uning asarlari lug'ati tuziladi. Keyingi yillarda Boburning turli asarlari chop etildi. Boburshunos olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Boburning adabiy merosi ko'p qirralidir. Uning she'rlari, «Boburnoma»si alohida o'rganiladi.

Umrini o'g'liga nisor etgan mehribon ota, g'urbatlardan zada ko'ngil sohibi, buyuk musofir, buyuk mag'lubiyatlarga uchragan zot, buyuk g'alabalar nashidasini totgan masrur qalb egasidan buyuk armon kitobi meros qoldi. Uni ko'zlarimizga surtaylik, tumor etaylik, undan ibrat olaylik.

Xulosa qilib aytganda, milliy qahramonlarimiz b'lgan buyuk shaxslar hayotining serma'no hikmatlari jamiyatimizning kelajagi bo'lgan yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatib, ularni fikran va ruhan tarbiyalaydi, ma'naviy komillikka hozirlaydi, da'vat etadi.

Bobur shaxsiyati bilan bog'liq ba'zi jihatlar Gulbadanbegimning «Humoyunnoma»sida keltiriladi. U shunday yozadi: «Firdavs makonning katta o'g'illari Humoyun podshoh... Qobul arkida 1508 yil 7 mart tug'ildilar. O'sha yili Firdavs makon amrlari va boshqalari: «Endi meni Bobur podshoh deb atanglar», deb buyurdilar. Humoyun podshoh tug'ilmaslaridan burun Mirzo Bobur deb atash rasm edi.

Chunki bugun podshohzodalarni Mirzo deb, o'zlarini esa Humoyun podshoh tug'ilgan yillaridan «Bobur podshoh», deb atashga buyurdilar.» Gulbadanbegim. Humoyunnoma. 33-bet.

Gulbadanbegim Humoyun kasal bo'lganda Bobur iztiroblarini ham ta'sirli yozadi: «Menki, Boburman, umri jonimni o'g'lim Humoyunga bag'ishlayman» deb aytgani, Shundan so'ng Bobur kasal bo'lib yotib qolgani, Humoyun o'sha kuni o'rnidan turganini aytadi. Mana shu bitiklarning deyarli hammasini "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostonida she'riy usulda, hissiy to'yintirilgan ifodasini o'qishimiz mumkin. Sirojiddin Sayyid nafaqat Boburning hayotidagi yirik voqealarni qalamga oladi, balki u yozgan ruboiylardan ta'sirlanib, ularga sharh sifatida ayrim she'rlar yaratadi.

Tole' yo'qi jonimga balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Ushbu ruboiydan kelib chiqqan hasrat to'la ma'no- mazmunni Sirojiddin Sayyidning quyidagi she'rida ham ilg'ashimiz mumkin. Aynan shoirning o'zi Bobur ruboiysidan ta'sirlanganini aytib o'tadi.

Yurtdan ketib, qaro mening yuzum bo'ldi,
G'urbat mening kecham ham kunduzim bo'ldi.
Menga tuzding dard-u hasrat tuzumini,
Yo Rab, aytgil, bu qandayin tuzum bo'ldi.
Jayhun bilan Sayhun emas, diyormdan,
Yig'lab ketgan mening ikki ko'zum bo'ldi.
Hasratlarim qovun bo'lib yetilmishlar,
Ko'z yoshlarim yot ellarda uzum bo'ldi.¹

Bobur yo'l-yo'lakay, jang-jadallar, davlat ishlaridan bo'sh paytlarida ijod qilgandir, lekin u shunchaki havaskor shoir emas, ijodidagi badiiy so'z jilolari, o'xshatishlar buning isbotidir.

¹ O'sha kitob 158-bet

Hazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub, rahm aylagil, ey lolaruh, bu chehrai zardim.
Sen, ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog‘ingg‘a tushub bargi xazondek muncha yolbordim.

Shoir kuz manzarasini chizadi. Bu manzara podshoh shoirning insoniy taqdiridan so‘zlaydi. Muallifning munosabati va sharhlari she‘rdagi sog‘inch va dardni, Vatandan ayrilish fojeasini kuchaytirib boradi. Kuz, xazon umrning so‘ngidan nishona. Sirojiddin Sayyid Bobur ruhiyatidagi taloto'plarni tasvirlashda Bobur mirzodan farqli o'laroq kuz tasvirini emas, biroz ko'tarilish qilib, qish manzarasi orqali shohning dard-u hijronlarini ifodalaydi.

Yomon yo'lu, yomon holu,
Ayo birlan qishim qattiq.
Diyoru yordin ayro
Qish ichra tashvishim qattiq.
Qalin qor ostida qolmish,
Mening bor qismatim, yo Rab,
O'zing boshqar menikim,
Boshima tushgan ishim qattiq.¹

XX asr adabiyotimiz xalq tarixini o‘rganishda og‘ir vaziyatga tushib qolgan edi, uning holati iskanjadagi kishi darajasida edi. XX asr badiiy tafakkurida realizm san’atining estetik imkoniyatlari naqadar keng va boy ekanligi o‘z aksini topgan. Adabiyotimiz zamonni, voqelikni, mustamlakadagi zamondoshlar turmushini badiiy o‘rganishda hayot haqiqatidan ma’lum darajada chekingan bo’lsa, olis o‘tmishni, tarixiy shaxslar hayotini badiiy - falsafiy tadqiq etishda dadil odim otdi. Eng muhimi, adiblarimiz, shoirlarimiz o‘tmish manbalari asosida yozar ekanlar, tarixiy voqelikka suyangan holda bugungi kunning ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy masalalari xususida muhokama yuritishdi. Tarix falsafasi, ma’naviy-axloqiy madaniyat asoslari, vatanparvarlik, qahramonlik psixologiyasining ildizlarini izlash va ko’rsatish orqali zamondoshlarimizning ongini o’zgartirishga intilishdi. O’z ajdodlaridan g’ururlanish, iftixor tuyg’ularini tarbiyalash tarixiy mavzudagi asarlarda ustuvor tendensiya bo’lib

¹ O'sha kitob 143-bet

qoldi.

Bugun komil insonni shakllantirishda klassik adabiyotimizdagi an'analarga boy hayotbaxsh didaktikaning o'rni va roli g'oyat kuchaydi, ahamiyati ortdi. Bularning hammasi badiiy so'zning qadrini oshirishga xizmat qilmoqda. Adabiyotimizda xalqona falsafiy ruh sodda ifodalarga singib ketgan donolik, hissiy kechinmalarga yo'g'rilgan hikmatli ma'nodorlik tilning ifoda imkoniyatlari naqadar kengligini tasdiqlayapti. Bularning hammasi badiiy tafakkur madaniyati yangi bosqichga kirganidan dalolat beradi.

Tarixdan o'zi haqli bo'lgan o'rinni topish har bir millatning millatligini ko'rsatganidek, o'z haqqini talab etish va uni ajratib ola bilish har bir odamning odamligini ko'rsatadigan belgidir. Chinakam ziyoli, asl ijodkor butun is'tedodini millatning haqqini ajratib olishga yo'naltiradi. Shu holat uning ijodiga ijtimoiy salmoq beradi.

Har bir avlodning o'zi suygan, ma'naviy, falsafiy kuch - quvvat oluvchi, hamisha topinib, talpinib, tayanib yurguvchi tarixi bor. Qaysi bir avlod uning ostonasiga bosh urib borsa, peshonasida oftob charaqlaydi. Tolei yorug'likka chulg'anadi. Qalbiga, shuuriga, tafakkuriga nur yog'iladi. Bu olamni, odamni qaytadan yangicha idrok etishga yo'naltirilgan ma'naviyat nuri, dunyoqarashlarda yangi sahifalar ochguvchi tafakkur yorug'ligidir.

Bugungi kunda Boburga ulug' ehtirom ko'rsatilmoqda. Bu mustaqilligimiz, hukumatimizning o'tmish ajdodlarimiz merosiga bo'lgan buyuk e'tibor bilan bog'liq. Ayni kunda Andijonda muhtasham Bobur bog'i hammani lol qoldirmoqda. Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma, xalqaro ekspedisiyalar mavjudligi, 1993 yilda Bobur merosi bo'yicha xalqaro anjuman Samarqandda o'tkazilishi va boshqalar ana shu e'tibor natijasidir. Sirojiddin Sayyid she'riyatida Bobur shaxsiga alohida ehtirom ko'rsatilgan. Bu Sirojiddin Sayyidning ona Vatan tarixini chuqur bilgani va sevganidir.

ANDIJONLIK SHOIRLAR IJODIDA BOBUR OBRAZI.

Andijon adabiy muhitida Bobur haqida she'r yozmagan ijodkor bo'lmasa kerak. Ismoil To'lak, Olimjon Xoldor, To'lan Nizom, Qamchibek Kenja singari bir qator ijodkorlarimiz ijodiy faoliyati davomida Bobur obraziga qayta-qayta murojaat qilishdi. Professor Dilmurod Quronov "Bobur andijonlik ijodkorlar talqinida" nomli maqolasida bu xususan to'xtalib, asosli fikrlarni keltirib o'tgan. Xususan, Ismoil To'lakning "Sog'inch" deb nomlangan turkum she'rlarini alohida sanab o'tgan.

Chaqmoqdek chaqnagan ismsiz tuyg'u

Bola xislarimga solmoqda suron.

Bobom yetolmagan bir armonsimon

Olis ufqlarga chorlamoqda u.

Etmoq orzum edi turkni yakqalam

Alisher chorlardi she'riy maydonga.

Lek bobom ko'zi-la boqsam jahonga

Faqat shoir bo'lmoq edi juda kam.¹

Amir Temurning buyuk orzularini ro'yobga chiqarishda o'zini burchli deb bilgan Bobur olamga bobosining ko'zlari bilan boqdi. U hayotini faqat ijodga bag'ishlashni istamadi, farzandlik burchi bunga yo'l qo'ymadi. Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrga adabiy sayohat qilib, bu ulug' shoh va shoir haqida "Uch so'z" dostonini yaratgan iste'dodli ijodkor To'lan Nizomdir. Ushbu dostonida To'lan Nizom Bobur hayotini boshdan-oxir miridan-sirigacha hikoya qilib berishni maqsad qilmaydi, mag'lubiyat va zafarlarga, quvonch va qayg'ularga to'la hayotning eng muhim o'rinlarini aks ettirish orqali yaxlit poetik obraz yaratishga muvaffaq bo'ladi. To'lan Nizom Boburning buyuk saltanat tuzishdan ko'zlagan insoniy maqsadlarini, yorga, onaga, vatanga muhabbatini, shoh, shoir, ota sifatidagi insoniy fazilatlarini teran tahlil etadiki, natijada ko'z oldimizda bobosi Amir Temur qoni vujudida guvlab oqayotgan dilbar bir siymo namoyon bo'ladi.

Professor Dilmurod Quronov Olimjon Xoldorning "Karvon qo'ng'irog'i" dostoniga ham to'xtalib o'tgan. Ma'lumki ushbu doston Bobur mirzoga bag'ishlangan bo'lib, Bobur haqidagi ilk katta hajmli asardir. Ushbu dostonni shoir Hindiston safari

¹ D. Quronov Bobur andijonlik ijodkorlar talqinida 2015

davomida yozgan. Doston Bobur hayotidan hikoya qiluvchi alohida epizodlar bilan shoirning lirik chekinishlarini uyg'unlashtiradi. Adabiyotshunos olim D. Quronov "Karvon qo'ng'irog'i" haqida fikr yuritarkan, quyidagi misralarni tahlilga tortadi.

Saroylarga zeb berdilar, arklar qurdilar,
Bir xotira qoldiray deb o'zga Vatanda.
Bir kun kelib mening uzoq avlodlarim ham,
Yodlariga olsalar bas, taqdir ekanda—
Vatan qildik, Vatan qurdik dedilar ular,
Ammo vafo qilmadilar saroy qasrlar¹.

Ushbu misralar shoirning Hindistonda boburiylar barpo etgan binolarni sayr etar chog'i ko'nglidan o'tkazganlaridir.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Zahiriddin Boburning hayot yo'liga nazmda teran nigoh ila bir nazar tashlandiki, bu – vatandoshimizning butun boshli hayoti, faoliyati va ruhiy dunyosini bir butun holda yorqin bo'yoqlarda, bor bo'y-basti bilan tasvirga olgan portret sifatida maydonga keldi."Uch So'z" dostonida Bobur hayotini qalamga olish barobarida o'sha davr, muammolar, xalqning, millatning jamiyatdagi o'rnini, kuchi kabilarni ifoda etish orqali milliy xarakterlar silsilasini yaratadiki, qahramonlarning asar syujetidagi harakati tugunni va voqealarning keng ko'lamda rivoj topishi uchun sharoit yaratadi.

To'lan Nizom o'zining Bobur siymosini badiiy talqin etgan "Uch so'z" dostonida asar mazmunini ko'rkamlashtirish maqsadida Bobur boshliq turli tarixiy shaxslar obrazlarini yaratish bilan birga turfa xil badiiy to'qima obrazlarni kiritadiki, asar mazmunining shakli o'zgacha ko'rinish oladi.

Shoir dostonida Bobur Mirzo timsolini xarakter darajasiga ko'tarishda tadrijiylikka amal qiladi. Ya'ni Bobur Mirzoning tug'ilishidan to kamolga yetguniga qadar uning xarakter-xususiyatini belgilovchi o'rinlar bilan boyitib boradi. Bu esa o'quvchi tasavvurida doston qahramonlari ruhiyatini yana-da yorqinroq va undagi voqealar bayonining yana-da jo'shqinroq shaklda aks etishini ta'min etadi. Shu tariqa kitobxon, yuqorida aytganimizdek, shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni o'zi uqib oladi va xarakter darajasiga ko'tarilgan asar qahramonlari bilan qadam-baqadam birga yuradi.

¹ O'sha maqola

Quvonsa, quvonadi, azob cheksa, azoblanadi. Qahramon muvaffaqiyati – uning muvaffaqiyati, qahramon mag`lubiyati – uning mag`lubiyati.

Temuriy hukmdorlardan bo`lgan Umarshayx Mirzoning bevaqt vafot etishi endigina o`n ikki yoshni qarshilagan yosh valiahd – Zahiriddin Muhammad Boburning boshiga turli sinovlar, aytish joiz bo`lsa, kulfatlarning yog`ilishiga sabab bo`ldi. Ulusni boshqarish tashvishi juda erta zimmasiga tushgan Bobur va uning hukumati ustida qora bulutlar aylana boshladi. Yosh bo`lishiga qaramay, ota makoni – bobosidan qolgan muqaddas tuproqni, yovlardan asrab-avaylashga qanchalik tirishmasin, temuriy shahzodalar o`rtasidagi tarqoqlik va sinfiy kurashlar, taxt uchun o`zaro kurashuvlar yovlar uchun ayni muddao bo`ldi. Hech kim, hatto tog`asi ham shunday paytda unga yelka tutmadi. Va tashqi dushman siquvi ostida ota yurti, ona diyorini tashlab chiqib ketishga majbur bo`ldi.

Yurtdoshimiz – mohir sarkarda, shoh va shoir temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Boburning ayanchli taqdiri tarixi juda ko`p ijodkorlar tomonidan turli janrdagi asarlarda qalamga olingan. Xususan, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanini tarixiy yo`nalishda bitilgan yirik va Bobur haqida batafsil ma`lumot beruvchi yetuk badiiy obida deb qarash mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Zahiriddin Boburning hayot yo`liga nazmda teran nigoh ila bir nazar tashlandiki, bu – vatandoshimizning butun boshli hayoti, faoliyati va ruhiy dunyosini bir butun holda yorqin bo`yoqlarda, bor bo`y-basti bilan tasvirga olgan portret sifatida maydonga keldi. Bu asar – To`lan Nizomning “Uch so`z” dostonidir. Shoir dostonida Bobur hayotini qalamga olish barobarida o`sha davr, muammolar, xalqning, millatning jamiyatdagi o`rni, kuchi kabilarni ifoda etish orqali milliy xarakterlar silsilasini yaratadiki, qahramonlarning asar syujetidagi harakati tugunni va voqealarning keng ko`lamda rivoj topishi uchun sharoit yaratadi.

“Har qanday san`atning mazmuni – voqelikdir. Binobarin, u xuddi voqelikning o`zidek, tunganmas va qurimasdir”¹.

Bu tunganmas va qarimas mazmunni adabiyot alohida bir usulda ifoda etadi. Adabiyot “obrazli tafakkur” dir. Bu ta`rifni birinchi marta fanga olib kirgan Hegel adabiyotning obrazlilikini mana bunday tushuntirib bergan edi: “Poetik tasvirni biz

¹ Belinskiy V. G. Poln. sobr. soch. , t. 12, Gosizdat, 1926, s. 332.

obrazli tasvir deb belgilay olamiz. Chunki u bizning ko`z oldimizda abstrakt mohiyat o`rniga uning konkret realligini qo`yadi”¹.

Yozuvchi ko`zimiz oldidan hayotning konkret manzarasini o`tkazishi kerak, toki shu manzaradan biz o`zimiz yozuvchi aytmoqchi bo`lgan fikrni fahmlab olaylik. Bu manzaraning ilmiy dalillardan katta farqi va afzalligi shundaki, bunday hayotiy manzara bevosita bizning hislarimizga ta`sir etadi, natijada biz tasvirlangan manzaraning ishtirokchisi bo`lib qolamiz.

Hayotning bunday konkret manzarasi obrazli tafakkurning bir sohasi bo`lgan adabiyotda o`ziga xos shaklda yaratiladi. Bu shaklning asosiy komponentlaridan biri xarakter hisoblanadi. “Xarakter – badiiy asar mazmunining shaklidir”²

To`lan Nizom o`zining Bobur siymosini badiiy talqin etgan “Uch so`z” dostonida asar mazmunini ko`rkamlashtirish maqsadida Bobur boshliq turli tarixiy shaxslar obrazlarini yaratish bilan birga turfa xil badiiy to`qima obrazlarni kiritadiki, asar mazmunining shakli o`zgacha ko`rinish oladi.

Shoir dostonda Bobur Mirzo timsolini xarakter darajasiga ko`tarishda tadrijiylikka amal qiladi. Ya`ni Bobur Mirzoning tug`ilishidan to kamolga yetguniga qadar uning xarakter-xususiyatini belgilovchi o`rinlar bilan boyitib boradi. Bu esa o`quvchi tasavvurida doston qahramonlari ruhiyatini yana-da yorqinroq va undagi voqealar bayonining yana-da jo`shqinroq shaklda aks etishini ta`min etadi. Shu tariqa kitobxon, yuqorida aytganimizdek, shoir aytmoqchi bo`lgan fikrni o`zi uqib oladi va xarakter darajasiga ko`tarilgan asar qahramonlari bilan qadam-baqadam birga yuradi. Quvonsa, quvonadi, azob cheksa, azoblanadi. Qahramon muvaffaqiyati – uning muvaffaqiyati, qahramon mag`lubiyati – uning mag`lubiyati.

Qutlug` Nigorxonimning ko`zi yoriganini eshitgan Umarshayx Mirzo Axsikat qal`asidan shom chog`i yetib keldi va suyunchi ulashgach, bolasini qo`liga olib:

Chaqaloq boshida ota boshladi.

O`ng yonga shamshir-u, so`l yonga qalam

Qutlug` Nigorxonim ko`zin yoshladi,

¹ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T: “O`qituvchi”, 1980. 133-b.

² O`sha asar. 133-b.

Qandaydir his eltib qalbini shu dam¹.

Dostonning ushbu satrlarida shoir qahramonning kelajagi va taqdirini (albatta, tarixiy omillar asosida) belgilab oladi va kunlar keladi, Bobur – buyuk sarkarda, Bobur – shoh, Bobur – shoir sifatida namoyon bo`ladi.

Xarakterlar yaratish yozuvchi, shoirning kishi psixologiyasini bilishi tasvirlay olishiga bog`liq.²

Dostonda Bobur qiyofasini yorqin ko`rishimiz uchun shoir uning butun umri davomidagi ichki dunyosi, ruhiyati tasvirini e`tibordan chetda qoldirmaydi. Bu esa qahramonning xarakter darajasiga ko`tarila olishiga qulay sharoit yaratgan.

Bobur – vafodor do`st. Bu dostonning quyidagi o`rnida yaqqol ko`zga chalinadi:

- Sardor, do`stim, yur ketdik bog`ga:
So`ngra aylanurmiz daryo qirg`og`in.
Nechun hayalllading kecha saboqqa,
Bobur koyib qo`ydi aziz o`rtog`in.
Tasodif yuz berdi, bemavrid o`lim
Sardor yosh joniga tashladi changal.
Bobur zor-zor yig`lar, ko`z yoshi lim-lim
Birinchi she`rini yozdi tong mahal.³

Do`sti Sardorning o`limi yosh Boburning bag`rini o`ydi. Bu tasvir Boburni vafodor do`st sifatida tasvirlash uchun zamin yaratdi.

Bobur – mehribon o`g`il. Otasi Umarshayx Mirzo jarga qulab vafot etgandagi ruhiy holatida ko`zga tashlanadi:

Sho`x daryo suviga boqayin,
Zam-zama qilsin-u, oqayin.
Oqmasam, o`zimni yoqayin,

¹ Nizom T. Saylanma. T: "Sharq", 1998. 188-b.

² Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T: "O`qituvchi", 1980. 134-b.

³ Nizom T. Saylanma. T: "Sharq", 1998. 191-b.

Shoir Bobur va uning yaqinlari tilidan aytilgan marsiya ko`rinishidagi satrlarni yaratishda folklor an`analariga suyangan bo`lib, bu orqali milliy xarakterlar talqinini yana-da chuqurlashtiradi.

Adabiy asar qahramoni ruhiyatini to`laqonli ochib bera olgan adibgina, o`z qahramonidan xarakter yarata oladi. Qahramon ruhiyatini tasvirga ololmagan yozuvchi danak mag`zidan emas, danakning o`zidan maza topishga urinayotgan kishiga o`xshaydi, danakning qadri esa ichida mazali mag`zi borligidadir.

Dostonda Bobur mehribon ota sifatida ham namoyon bo`ladi. Farzandi arjumandi Humoyun Mirzo kasallikka chalinib, yotib qolganda, uning atrofida aylanib, Ollohdan shifo tilaydi va Humoyun uchun jonini nisor etadi. Humoyun tez orada oyoqqa turib ketadi.

Dostonda ana shunday ijobiy xarakterlarni voyaga yetkazish barobarida Ahmad Tanbal, Uzun Qosim, Qavchin singari qilgan ishlari “itlik” hisoblangan qahramonlar ham keltiriladiki, asardagi ijobiy xarakterlar kitobxonning ardog`ida bo`ladi, va xarakterlararo kurash avjiga minadiki, bu konflikt asar voqealarini rivojlanishiga zamin yaratadi, asar voqealari tempining keskinlashuvini ta`minlaydi.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, xarakter – adabiy asarda mazmunning shaklidir. Chunki o`quvchi mazmunni dastavval va butunicha xarakterlar orqali biladi va hazm etadi. Shu sababli ham o`quvchi yodida boshlicha xarakterlar qoladi.

Adabiy asarning boshqa komponentlari – tipik sharoit tasviri, uning ifodasi bo`lgan syujet va adabiyotning materiali hisoblangan til xarakter yaratishning vositasi vazifasini bajaradilar. Xarakter mazmunga nisbatan shakl bo`lsa, til xarakterga nisbatan shaklidir.

Dostonda Boburning xarakter-xususiyatini to`la-to`kis ochib berish uchun xizmat qiladigan komponentlardan biri ham badiiy asar tilidir. Mazkur asar tilini umumiy tarzda haqiqatan boy, bo`yoqli, sodda, ifoda kuchi zo`r, ommaga anglashiladigan deya ta`riflash mumkin. Bu dostonning ifoda yo`sinini soddaligi, xalqonaligi bilan alohida

¹ O`sha asar. 193-b.

ahamiyat kasb etadi. Qahramon fikrini to`la yetkaza olishi uchun xalq maqollari, iboralar, og`zaki nutq uchun xoslangan so`zlardan unumli foydalanilgan:

Jigarin kuydirib, achchiq g`am-qayg`u,
Otamlab yig`ladi Xonzodabegim.¹

Ushbu o`rindagi “Jigarin kuydirib”, “Otamlab yig`ladi” birliklari og`zaki nutqqa xoslangan bo`lib, Xonzodabegim ruhiyatini ochib berish uchun yordam bergan. Otasining o`limidan keyingi Boburning tashqi va ichki dunyosi o`rtasidagi kurash doston syujetini yana-da mavjlantiradi. Bu holat Bobur tilidan aytilgan quyidagi xalq qo`shiqlari tipida yaratilgan she`rda o`z ifodasini topgan:

Elga shohlik nimadir,
Ummondagi kemadir.
G`arq bo`lurmi ertaga,
Yo bugun xalq o`rtaga
Olib yanchar tosh misol,
Otam edimi halol?
Otam kimdir, qanday jon?
Unda butunmi iymon?²

Bobur Mirzo hali yosh bo`lishiga qaramay, otasining o`rniga shoh sifatida ko`tarildi, lekin uning yuqorida keltirilganidek ichki his-tuyg`ulari bilan konfliktga kirishishi yoshiga qaraganda ancha aqlli, zakovatli, kelajakdagi donishmand Boburga munosib bo`lgan yosh Bobur sifatida tasvir etilganidan dalolat beradi. Otasining qanday inson o`tgani: insof-diyonatli, halol, iymoni butun bo`lgani yoki bo`lmagani uni qiziqtiradi. Elga shohlikni yosh Bobur donishmandlarcha ummondagi kemaga qiyos etadi. Ertaga u xavfsiz suza oladimi yo g`arq bo`ladimi?

Shu tariqa u o`zining tahlikali hayoti va kelgusi iztirobli kunlarini go`yo bashorat etadi.

O`g`lim, bulbul chamansiz,
Inson Vatansiz bo`lmas.

¹ Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998. 192-b.

² Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998. 194-b.

Lek Vatanni xor etgan
Kasning omadi kelmas.¹

Umarshayx Mirzoning , keyin Bobur Mirzoning ham piri sifatida namoyon bo'lgan Kosoniy timsolining nutqida keltirilgan “Bulbul chamansiz bo'lmas, odam Vatansiz” xalq maqolining keltirilishi, birinchidan, ushbu timsol xarakterini individuallashtirsa(ya`ni maqol, hikmatli so`zlarni personajlar nutqida keng ishlatilishi qaysidir ma`noda uning donishmand inson ekanligini ko`rsatib turadi), ikkinchidan, bu ham Bobur Mirzo kelajagiga ishora qiladi. Ya`ni keyinchalik Boburning boshiga falakning turli mushkulotlarining yog`ilishi, Vatandan ayro tushishi, “Har ishniniki ayladim xatolig` bo`ldi”, “...bu ne yuz qarolig` bo`ldi? ” deya o`z-o`ziga savol berib, javob topa olmay, yalangoyoq tog`- u tosh kezib, keyinroq esa Hindistonda katta bir imperiyaga asos solsa-da, yuragining bir parchasi Ona yurtida qolib ketganini har lahza ta`kid etgan paytlarini avvaldan mana shu birgina xalq maqoli bilan muxtasar aylagandek tuyuladi.

Dostondagi Kosoniy timsoli garchi to`qima obraz bo`lsa-da, asarda Mirzo Boburning piri, donishmand bir valiy sifatida bo`y ko`rsatadi. U Boburga temuriyzodalarning eng so`nggisi u ekani, otasi ko`p nuqsonli inson bo`lganligi, bobosi Amir Temurning buyuk saltanatini birlashtirishi lozimligi, Vatanni yovlar qo`lidan ozod etishi kerakligi, agar shunday yo`l tutmasa, bobosining ruhi tinchimasligi kabi nasihatlarini qiluvchi piri murshid sifatida gavdalanadi. Bobur uchun dasturilamal sifatida yaratilgan “Risolayi Boburiya” kitobini taqdim etadi. Bobur qulluq qila kitobni olib, Temurning piri Xoja Ahror valiyning “Risolayi Volidiya” asari bilan bu kitob uning uchun to`g`ri yo`l ko`rsatuvchi chiroq, ikki kitob ikki qanot bo`lajagini aytadi.

Shoir Mirzo Boburning ana shu paytdagi ruhiy holatini yana-da yorqinlashtirish maqsadida qahramonning o`zining ijodiy merosiga murojaat qiladi. Bobur qalamiga mansub ushbu ruboiyni keltiradi:

Ko`ngil tilagan murodiga yetsa kishi,
Yo barcha murodlarin tark etsa kishi.

¹ O`sha asar. 210-b.

Bu ikki ish muyassar bo`lmasa olamda,
Boshin olib bir sorig`a ketsa kishi.¹

Necha-necha kunlar o`tdi, oylar o`tdi, yillar o`tdi. Lekin “Bobur ishi bitmadi, ko`ngli sira to`lmadi”.<sup>2</sup> O`z Vataniga, Andijoniga borolmaydi. Shohlik davrida atrofida qo`l qovushtirib turgan beklar-u mulozimlarning ko`pi endi boshqasi uchun muntazir. Lekin shunday esa-da “Bobur taqdir koridin yig`lamadi, kulmadi...”<sup>3</sup>, temuriyzodalarning sha`nini yerga urmaslik uchun, bobolarin ruhlarini xarob ko`rmaslik uchun, onasining arvohi chirqiramasligi uchun “Hech yaramas yog`iyga bo`yin egmadi”, “Bobur hech cho`kmadi, pasaymadi, evrilmadi”.⁴

Bobur xarakterini belgilashda shoir tomonidan bayon etilgan yuqoridagi fikrlar ham asos bo`la oladi. Chunki dostonida Bobur basharti yurtidan yiroqda esa-da, qo`rqoqlarcha qochqin qilmadi. Ona xalqining tinch va osoyishta hayoti ustida uzoq muddat jang yasab, el-u xalq ahvolini xarob-u tang etishni xohlamadi, yana-da to`g`rirog`i yurtidagi hukmron tabaqa vakillari Bobur kabi Vatanni, uning ozodligini emas, balki o`z mavqeyi, manfaatlarini o`ylab ish tutdilar. Shoir Turdi Farog`iy ta`biri bilan aytganda, “Tor ko`ngilli beklar man-man”⁵ likka berildilar. Oxir-oqibat “Vatanni-da, o`zlarini-da berib qo`ydilar”.⁶

Bobur dostonida yosh, tajribasizroq esa-da, qo`rqmas, jasur, dovyurak, yovqur inson, Vatanning munosib farzandi sifatida tasvirlangan. Bu esa Bobur xarakteri portretidagi yorqin ranglardan biri vazifasini o`tagan. Boburning dostonidagi Vatanni tashlab chiqib ketish chizgisi ham juda ta`sirchan bo`lib, unga vatandan ayro tushish g`oyat mushkul ekani, Sulaymon tog`ida o`tirib, Ona Andijonga to`ymay tikilgani, Vatan sham bo`lsa, u parvona ekani juda ta`sirli ifodasini topgan.

Sulaymon tog`ida Bobur pinhona

Ona Andijonga to`ymay tikilar.

Dedi: sen shamsan, men bir parvona

¹ Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998. 212-b.

² O`sha asar. 213-b.

³ O`sha asar. 213-b.

⁴ O`sha asar. 213-b.

⁵ Turdi Farog`iy

⁶ Murod T. Yulduzlar mangu yonadi.

Yurakdan o'tganin bir Olloh bilar.¹

To'lan Nizom "Uch so'z" dostonini yaratish jarayonida milliy xarakterlar talqinini yana-da yorqinroq ifoda etish maqsadida xalqona ohang va dostonlarga xos she'riy o'lchovlardan unumli foydalandi. Xalq dostonlari, asosan, 11 bo'g'inli misralarda yaratilsa-da, qahramon harakati tezlashgan, otlar chopishi, jang tasviri kabilarda 7-8 hijoli misralarda yaratiladi.²

To'lan Nizom ham folklor an'analari sadiq qolib, doston qahramoni faoliyatining keskinlashgan o'rinlarini 4-5 bo'g'inli misralarda ifoda etadi:

Baland Hisor,
Ey purviqor!
Poying bahor,
Boshingda qor.
Qoldi diyor...
Qoldi diyor...
Ul yog'ingda
O'zga yurt bor,
Bobur senga
Borayotir
Quchog'ingga
Ul yog'ingga...³

Shoir dostonni yaratar ekan, unga "xalq kuylaridan ohang tanlaganini", "Go'ro'g'li", "Alpomish" o'lchoviga mos"⁴ vaznlardan foydalanganini qayd etib ketadi:

Xalqim kuylaridan tanladim ohang,
"Go'ro'g'li", "Alpomish" o'lchoviga mos.

¹ Nizom T. Saylanma. T: "Sharq", 1998. 215-b.

² Imomov K. va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T: O'qituvchi, 1990. B. 265.

³ Nizom T. Saylanma. T: "Sharq", 1998.215-b.

⁴ O'sha asar. 220-b.

Doston davom qilur endi boshqa rang,

Kela qol va sekin tingla, iltimos.

Xalq kuylariga mos ohangdorlik dostonning o`qishlilikini ta`minlagan. Milliy xarakterlar talqinini ochib berishda milliy ohanglarning beqiyos ekani ushbu dostonda o`zining isbotini topgan. Moziyga yondoshishda ijodkorda haqgo'ylik, aniqlik bo'lishi zarur. Ana shu hislatlar bir yerga jamlansa, bir ijodkor shaxsida mujassamlashsa, juda yaxshi. Adib, shoir o'z xalqining tarixchisi emas, aksincha, u xalqining kuychisi. U tarixiy faktlarga, voqealarga romantik bir qanot, kayfiyat bag'ishlaydi. Shu tariqa odamlarning nazarini shu yo'nalishga qaratishi mumkin. Shoir tarix so'qmoqlaridan biron-bir siymoni oladi-da, turfa fazilatlar orasidan bir-ikkisini nurlantirib yuboradi, bulutlardan balandga ko'tarib ko'rsatadi. To'lan Nizom she'rlariga mahliyoqlikni bir so'z bilan aytganda ta'riflash qiyin. Shoir she'rlarida hayotga sezgirlik, hayotiy hodisalarga qiziquvchanlik, odamlar taqdiriga mas'ullik hissi hukmron. U jo'shqin hayotning dolzarb muammolari, qaynoq nafasi og'ushida yashab kelmoqda. Shoir ijodiy

individualligining o'ziga xosligi shundaki, Bobur haqida yozar ekan, bu ulug' siymo hayotidagi shunday hodisalarni, odamlararo munosabat ko'rinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi. Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-estetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning ana shu mitti bo'lagi millat va Vatan taqdiriga daxldor mohiyati bilan namoyon bo'ladi. Shoir she'rlarini yaxlit mujassamlashtiruvchi, odamlar qalbini sehlalab tortib turuvchi bir kuch bor. Bu - ona yurtga, mo'ysafid xalqimizga bo'lgan adoqsiz muhabbatdir. To'lan Nizom she'riyatining rivojlanish yo'llarini ta'minlagan eng muhim asos ham ana shunda. Tarix, asr nuqtai nazaridan qaranganda, biz ayni paytda nihoyatda ulug', olamshumul kunlarni boshdan kechirmoqdamiz. Bugunning kitobxoni uchun ezguliklar, yaxshiliklarga undaydigan, mehr-muhabbatga tomon ruhlantiruvchi she'r-u dostonlar kerak. Mana shuni yurakdan his etgan To'lan Nizom ajoyib asarlar yaratmoqda. "Uch so'z" dostoni ham mana shunday asarlar sirasidandir.

Ulug' adibimiz Abdulla Qahhor asar qahramonining xarakter darajasiga ko'tarilishini adabiyot uy daftarida yangi insonning paydo bo'lishiga qiyos etgan edi. To'lan Nizom "Uch so'z" dostonida shoh va shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur

timsolini yaratishda uning turli qirralarini to`la-to`kis aks ettirish orqali o`zbek dostonchiligi “uy daftarida” yangi bir milliy xarakterning paydo bo`lishiga erishdi.

O'zbek she'riyatida Andijon haqida bitilgan she'rlarning barchasida Bobur siymosiga murojaat etilgan. Bu shubxasiz va tabiiydir. Zero, Bobur Andijonning dunyoga bergan dunyoga bergusiz farzandidir.

Xulosa

Mustaqillik degan bebaho ne'matni shuning uchun ham qadrlaymizki, u bizga tuproq ichida qolgan gavharlar—milliy qadryatlarimiz, ma'naviy boyliklarimizni qaytarib berdi. G'ururimizni, tilimizni, dinimizni, imon-e'tiqodimizni tikladi. Shular qatorida ulug' ajdodlarimiz merosini har tomonlama o'rganish, ulardan bahramand bo'lish va faxrlanish huquqiga ega bo'ldik. Ajdodlarimizga munosib avlod bo'lish biz yoshlarning doimiy orzusidir. Shunday ekan har bir shaxs o'z qalbida kim edik, kim bo'ldik, kim bo'lmoqdamiz mushohadasi ila yashamog'i kerak deb o'ylaymiz. Zero buyuk bobokalonlarimizning olis kechmishdagi hayotining qaysidir jihatlaridan faxrlanish, ibratlanish, qaysidir jihatlaridan saboq chiqarish qalbimizning hukmiga havoladir. Ayni mana shu mushohada va hukmlar bizning kelajagimizni bevosita belgilab beradi. Davlatimizning siyosati darajasiga ko'tarilgan ajdodlarimizning nomlarini abadiylashtirish borasida boshlangan barcha tadbirlar-u , qilinayotgan ishlar o'z navbatida biz ilgari surgan fikrlarimizning aniq va yorqin dalilidir,

Bobur va uning qoldirgan adabiy merosi bugun bir emas, bir necha millatlarning qadryatiga aylangan. Shunday ekan, Bobur obrazining dunyoviy va milliy talqinlari mavjuddir. Biz milliy talqinimizda Boburning millatimizga xos bo'lgan fazilatlariga e'tibor qaratsak, butun dunyo uning umumbashariy fazilatlarini qadrlaydi. Uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalarning insoniyatga xizmat qilishi bilan faxrlanadilar.

Istiqlol yillarida Boburning hayoti va ijodiga xos bo'lgan ma'lumotlarni e'lon qilish dolzarb masalaga aylandi. Yuqorida aytganimizdek, kimki, Bobur haqida qanday ma'lumotga ega bo'lsa, u afsonami, rivoyatmi, qat'iy nazar uni boshqalar bilan baham ko'rish istagida ommaviy nashrlarda e'lon qildi. Maqsad sho'rolar hukumati qora bo'yoqlar choplagan Boburni anglash, unga qaytish edi.

Bobur shaxsi va uning fazilatlari juda katta ijtimoiy, tarbiyaviy-estetik ahamiyatga egadir. Bobur obrazini yaratgan bugunning ijodkorlari mustaqil yurtimiz tarqqiyotiga o'z hissalarini qo'shadigan, qo'shayotgan barkamol yoshlarimizni tarbiyalashda, ularning ruhiga vatan qadri, yurt tinchligi tushunchalarini singdirishda ushbu buyuk tarixiy shaxsga, uning ijodiga-yu qora qismatiga murojaat qilishmoqda. XX asr o'zbek adabiyotining deyarli barcha shoirlari Bobur haqida yozishgan. Biz

ushbu tadqiqotda ularning ayrimlariga to'xtalib o'tdik, xolos. Bu jihatdan yuqorida ta'kidlaganimizdek, Sirojiddin Sayyid ijodi e'tibor va e'tirofga loyiqdir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, biz ushbu tadqiqot ishida o'zbek shoirlarining Bobur shaxsini, uning asl qiyofasini o'quvchilarga yana bir karra tanishtirgan dilbar she'rlarini bitta bitiruv malakaviy ish doirasida yoritilishi mumkin bo'lgan darajada baholi qudrat yoritdik. Umid qilamizki, ushbu tadqiqot Bobur ijodini o'rganishda, Bobur shaxsini o'rganishda muhim omilga aylanadi va bugungi yoshlarni shu ruhda tarbiyalashda o'z o'rniga ega bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur bugun o'z asarlari bilan xalqimiz ko'nglini yoritib turgan chiroqlardan biridir. Shuningdek, har birimizni Vatanga munosib farzand bo'lib, kelajak sari dadil qadam tashlashga undovchi, abadiyatga daxldor aziz va qadrli siymodir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov.I.A . Yuksak mana'viyat— yengilmas kuch.- T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Ўзбекистон, 1998.
3. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. - Т.: Ўзбекистон, 1998.
4. Z.M.Bobur. Boburnoma. - Т.: O'qituvchi, 2008.
5. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиети тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1976.
6. Normatov U. Ijod sehri. – Т.: Sharq, 2007.
7. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Т.: Akadernashr, 2010.
8. Quronov.D. Adabiyotshunoslikka kirish.- Andijon. : Hayot, 2002.
9. Qo'chqarov M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari. -Т.: Sharq, 2011.
10. Умуров Х. Қахрамон маънавий олами ва эпиклик.- Т.: Фан, 1995.
11. Yo'ldoshev. Q. Yoniq so'z.- Т.: Yangi asr avlodi, 2006.
- 12.O'rinboev A. Ma'naviyat - millatning kuch - qudrati. – Т.: O'zbekiston, 2006.
- 13.Иззат Султон. Адабиёт назарияси.- Т.: Ўқитувчи, 1980.
14. Jalilov B. Bobur. - Т.: O'qituvchi, 2004.
15. Хуршид Даврон. Болаликнинг овози. -Т.: Шарқ, 1986.
16. Абдулла Орипов. Йиллар армони.- Т.: Шарқ, 1984.
17. Muhammad Yusuf. Saylanma.- Т.: Sharq, 2010.
18. Хумоюн Акбаров. Интиҳосиз наволар. -Т.: Шарқ, 2007.
19. Тўлан Низом. Сайланма. -Т.: Шарқ, 1998.
20. Имомов К. ва бошқалар. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Т.: Ўқитувчи, 1990.
- 21.Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.-Т.: Sharq, 2006.
22. Ахмадбоева М, Иброхимова С. Ўзбек адабиёти. – Т.: Ўқитувчи, 1985
23. Qosimov B, To'xliiev B, Yo'ldoshev Q. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. – Т, O'qituvchi, 2004.
24. Норбой Худойбергенов. Ишонч. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1988.
25. Озод Шарафиддинов. Ижодни англаш бахти. –Т.: Шарқ, 2004.

26. Qo'chqorova M. Badiiy soʻz va ruhiyat manzaralari. - T.: Muharrir, 2011.
27. Ziyo net.uz.
28. Pedagog.uz
29. Muhokama.uz